

Yopishmagan gajjaklar

(O'rtoq Boybo'latovga ochiq xat)[1]

Do'stim, oylar, yillar tirishib, bir asar chiqarg'an muharrir[2] do'stlarning shu asar haqidag'i muhokamalarini tinglashdan, asarning kamchiliklarini o'rganishdan, albatta, mamnun bo'ladi.

Mening "O'zbek adabiyoti namunalari" atalg'an arzimas bir asarim[3] haqida fikringizni bildirmaslik uchun ancha urinib, 3-son gazetni to'ldirganingizni ko'rib mamnun bo'ldim[4], o'qib ham chiqdim. Hamma gapdan burun Sizga tashakkurimni bildiraman. Lekin baxtga qarshi maqolangizni shunchalar kengaytirgansizkim, kengligi asl maqsadning yo'qolishig'a sabab bo'lg'an. Bizda bolalar orasida "Ko'zim ko'rmaydir" degan bir o'yun bor: Bir bola ko'zini qattiq bog'lag'andan keyin qo'lig'a uzun bir tayoq olib, o'rtada turadi. Boshqalar uning oyog'ini olmoq uchun atrofdan hujum qiladilar. Tayoqli bola tayog'ini ko'tarib "ko'zim ko'rmaydir" deb, tez-tez aylanaberadir, tayoq kimga to'g'ri kelsa, shunga tegadir. Maqolani yozg'anda sizning qalamingiz ham shul ko'zi ko'rmas bolaning tayog'iga o'xshag'an: aylang'an, aylang'an, kimga to'g'ri kelsa, shunga tekkan, orada mening kitobim unutilgan, juda oz o'rin olg'an.

Har holda maqolangiz ko'brak mening shaxsimga qaratilg'ani munosabati bilan javob tarzida emas, dardlashuv shaklida bir narsa yozaman. Mening asarimni boshlab tartibig'a e'tiroz qilg'aningiz ko'riladir. Adabiyot tariximizni qoplovi[5] "Feo'dalizm", "Savdo sarmoyasi" kabi davrlarg'a ajratishimg'a qarshi kabi ko'rinasiz. Lekin o'z fikringizni, ya'ni qanday taqsim qilish lozimligini yozmag'ansiz. Adabiyot mutaxassisi yoki adabiyot tarixi bilan mashg'ul bir odam bo'lsa edingiz, shu bahona bilan sizga "yopishmoq" mumkin edi. Lekin men bilamankim, siz adabiyot tarixining odami emassiz, maqolangiz esa tasodifiy bir hodisadir. Shuning uchun bu to'g'rida ma'zur ko'raman sizni. Lekin shuni aytib o'tamankim, adabiyot tarixini taqsim qilishda marksizm usulining talab qilg'ani yo'l mening taqsimimdir. Bu taqsimni o'zbek adabiyoti tarixig'a tadbiiq qilishning o'zi katta ham yangi bir ish. Buning hududini tayin qilishda ba'zi yangilishlarning bo'luyi mumkin. Lekin ularni ko'rsatib, isbot qilib, so'ngra til tekirish[6] kerak edi. Siz maqolangizda bu tomong'a yaqinlashg'an davrlarni bir-biridan ajratg'an xususiyatlarning yo'qlig'idan shikoyat qilg'ansiz, lekin siz har davrning namunalarini o'qidingizmi? Masalan: "Savdo sarmoyasi" davri bilan "Feo'dalizm" davrining namunalarini orasidag'i Shaklda va mazmundag'i ayirmalarni ko'ra oldingizmi? Yoki ko'rib, qanoatlanmadigizmi? Qanoatlanmagan bo'lsangiz siz bu davrlarni bir-biridan ajratgan qanday xususiyatlar istaysiz (ki namunalar bo'lmasin). Mas'alaning bu tomonlaridan (ya'ni eng muhim va foydaliq tomonlaridan) maqolangiz sukut qiladir. Holbuki, shu tomonlarni ochiq ko'rsatganingizdagina mening kitobimning kamchiliklarini ko'rsatgan va menga bir narsa o'rgatgan bo'lur edingiz. Buni ham sizning adabiyot tarixining odami bo'lmasdan tasodifan maydong'a chiqg'aning'izga bag'ishlayman. Maqolangizda chig'atoy adabiyoti va uning proletar adabiyotiga asos bo'lishi to'g'rilarida ko'brak turib, bor kuchingiz bilan hujum qilasiz. Fitrat so'z boshida "Chig'atoy adabiyoti proletariat adabiyotig'a asos bo'ladir degan" deb, qoravul qichqirasiz, hatto mening bosh so'zimda o'zingizga yordam qilgudek ko'ringan bir-ikki jumla ham keltirasiz. Chig'atoy adabiyotining proletar adabiyotig'a asos bo'lishini da'vo qilmoq nari tursin, bosh so'zimda chig'atoy adabiyotini mafkura yog'idan yaramag'anini so'ylaganman. Mening "namunalar"im bosilmasa edi, sizdan boshqa hech kimning qo'lida uning nusxalari bo'lmasa edi, bosh so'zimdan ko'chirganingiz bir-ikki jumlaning balki sizga foydasi bo'lur edi. Nima choraki, kitob O'zbekistonda bosilib tarqalg'an. Sizning maqolangizni o'qug'an har kim mening bosh so'zumni ham o'quy oladir. O'qug'ach, sizning menga tuhmat qilib turganingizni ham onglaydir. Men so'z boshimdag'i iboralarning mas'alag'a daxldorliq qismini tamoman ko'chiraman, yangidan o'qishingizni va e'tirozingizni shunga tayandirib, yangidan maydong'a chiqishingizni talab qilaman: "Biz o'zbeklarning va, umuman, O'rta Osiyo turklarining tarixiga oid arabiy, forsiy, turkiy tillarda bir ko'b asarlar yozilg'an. Biroq bu asarlar bizning siyosiy harakatlarimizni tor bir ramkada ko'rsatmakdan boshqa ishga oz yaramakdadir. Xalqimizning, o'lkamizning ijtimoiy-iqtisodiy hollarig'a oid xabarlarni bu asarlardan istab topish juda qiyindir, ba'zan mumkin ham bo'lmaydir, chunki yo'qdir. Adabiy tariximizni tekshirish esa, mana shu kamchiliklarni to'ldirishga katta yordam qiladir. Feo'dallarning, umuman, hokim sinfnig omma bilan munosibatlarini, ommag'a qarashlarini, ziyolilarning, shoirlarning hokim sinfga munosibatlarini, hokim sinf foydasig'a qarab ommani qanday ovutg'anlarini, oldag'anlarini, hokim sinfnig kayf-safoni (Bobircha, "aysh va fisqi") qaysi darajalarg'a chiqarg'anlarini yolg'iz adabiyot tariximizda ko'rishimiz mumkindir.

Bundan boshqa, tarixiy san'atkorlarimizni tekshirish, ularning tajribalaridan qo'rmoq istaganimiz proletar adabiyoti uchun foydalanish ham keraksiz bir harakat bo'lmaydir. Mana shu qisqag'ina izohot bu kitobni qanday tilak bilan tartib qilg'animizni bildirg'an bo'lsa kerak.

Mana shu so'z boshimda mening tomonimdan aytilgan gaplar. Mana shu gaplarga e'tirozingiz bo'lsa, aytishga haqlisiz. Yo'qsa, mening so'zlarimni bosh-oyog'ini kesib tashlab, o'z maqsadingizga yaroqliq bir holg'a kirgizib, so'ngra e'tiroz qilishingiz ilmiy bir harakat sanalmaydir.

Kitobimning 3-bo'limig'a "Savdo sarmoyasi" davri ismini berg'animdan ham rozi bo'lmaysiz, shu istilohotning oxirida kattakon birB? (so'roq) alomati qo'yasiz. Biz temuriylar davrini "savdo burjuaziyasi" davri deymiz. Temuriylarning jahongirliq(ni) O'rta Osiyo savdo sarmoyasining taraqqiysi bilan izoh qilmoqchi bo'lamiz. Buning uchun qo'limizda yetarlik materiallar bor. Siz shunga rozi emasligingizni chiroyli bir savol alomati bilan ifoda qilasiz, bu davrni nima deb atamoq to'g'risida fikringizni bildirmaysiz. Siz shuni unutasizki, savol alomati qancha chiroyli bo'lsa bo'lsin, ilm uchun bir narsa bermaydir. Bizning fikrimizga qarshi ekansiz, fikringizni bildiring. Ayting-chi, temuriylar davriga qanday ism berasiz?

Bundan so'ng maqolangizda mening tarjimayi holimni tekshirishga kirishasiz. Mening bir vaqtlar mutasavvif, panislomist, panturkist bo'lg'animni turli dalillar bilan isbot qilmoqchi bo'lasiz. Piloningiz yaxshi. Maqtanarliq pilon, agar siz mening "Namunalar"imni burungi panislomistligimning, panturkistligimning davomi ekanini, bu asarim bilan mazkur fikrlarning bittasini o'zbek ommasiga taqdim qilg'animni isbot qila olsa edingiz, ishingiz ko'b muvaffaqiyatli chiqar edi. Lekin buni qila olmag'ansiz. Bu kun bir ko'b kishilarning moziylari haqida gapirish mumkin. Lekin, bu gapirishgina yetarli emas. Ularning moziylari bilan bugungi ishlari orasidagi munosibat va aloqani kashf etish kerak!

8-, 10- yillarda (ya'ni, 18-20 yil burun) yozilg'an asarlarimdan shohidlar keltirasiz. Azizim, mening qo'limg'a qalam tutib, asar yozg'animga yigirma yil to'lg'anini o'zingiz ham e'tirof qilasiz. Bu yigirma yil orasida men o'zbekcha, tojikcha yuz o'n pechatniy listlik asar yozdim (maqolalar hisob emas). Bularning hammasini Sho'ro hukumatig'a, proletariat mafkurasiga yararliq asarlar ekanini hech da'vo qilmadim va qilmayman-da. Ishning bu tomonini onglamoq uchun tarjimayi holimni o'zimdan tinglang. Men Osiyoning eng qora diniy markazlaridan va qora bir usuli idorag'a tobe' bo'lg'an Buxoroda 1884 yilda tug'ildim[7]. Birinchi tarbiyani eski usuldagi diniy bir maktabdan oldim. Maktabdan chiqg'ach, diniy bir madrasaga kirib oldim, namoz o'qidim, mutaassib bir musulmon edim. Hatto Buxoroda yangi boshlang'an jadidlar harakatig'a qarshiliq ham qildim. So'ngralari jadidlar

harakatig'a oralashdim. U zamondag'i zehniyaxning ta'siri eski jadiclarning tashviq va yordami bilan Turkiyaga tahsil uchun bordim. Mana shu vaqtlarda men diniy reforma tarafdori edim: dinni fan bilan kelishtirish, fang'a to'g'ri kelmayturgan xurofot qismini dindand chiqarish, dinni tozalash xayollariga ishong'an edim. Voqean esa, panislomizm g'oyasining churugan bir xayol ekanin kun sayin ocha bordim. Panislomizmning bo'lmag'ur xayol ekanini onglag'ach, panturkizm xayolig'a berildim. Bu vaqtlarda yozg'an asarlarda diniy reformistik fikrlar ko'rilib turadir. Siz esa, mazkur asarlardan mening mutasavvif ekanimni chiqarasiz. Tasavvuf bilan ozg'ina tanish bo'lsa edingiz, u kitoblarda mazkur maslakning asarini ko'ra olmag'aningizni o'zingiz onglar edingiz. Men hech bir vaqt tasavvufga mansub bo'lmadim. Lekin adabiyot tarixini tekshiruchi bir muallim bo'lg'anim sifati bilan tasavvufni juda ko'b tekshirdim. Bu kun tasavvufning har tomonini, eng qorong'u sirlarini bilaman. Hatto, shu kunlarda "O'rta Osiyoda tasavvuf tarixi" ismli bir kitob[8] vujudga keltirmak uchun tirishmakdaman. Tasavvufning qanday zaharli, qanday zararli bir maslak ekanini har kimdan ham yaxshi bilib olg'anman. Lekin hech vaqt mutasavvif bo'lmaganman.

So'ngralari hayot meni panturkizm qotib qolishda qo'ymadi. Men o'zbek millatchisiga aylandim. 17-18-yillarda O'rta Osiyoda panturkizm harakati kengaymoqda edi, ayniqsa, Toshkentda panturkizm fikri bilan sug'orilgan turli to'dalar tashkil bo'ldi. Turk tillarini, turk adabiyotini birlashtirish shiori ostida "ish" ko'rildi. Maktablarda usmonli adabiyoti ona tili darslari o'rnida qabul qilindi. Mana shu harakatga qarshi o'zbek tili, o'zbek adabiyoti shiorlari ostida "Chig'atoy gurungi" tashkil qilindi. "Chig'atoy gurungi" o'zbek millatchiligi: o'zbek tili, o'zbek adabiyoti shiorlari ostida panturkist to'dalarga va shunga berilg'an o'ng jadiclarga qarshi kurashdi. Siz "Chig'atoy gurungi" panturkist edi" deb qichqirasiz. Ayniqsa, shu kunlarda "Chig'atoy gurungi"ni panturkist deyish mo'da holig'a kirib boradir. Holbuki, "Chig'atoy gurungi" o'z zamonida panturkizm, panislomizm harakatlari'ga qarshi kurashmoqda edi. Sizga ikkita fakt ko'rsatay: butun maktablarimizda "Umumiy turk tili, umumiy turk adabiyoti" shiorlari hukm surganda "Chig'atoy gurungi" o'zbek tili, o'zbek adabiyotini o'rgatish uchun Hadrada pulsiz dars berishni e'lon qildi. Muallimlikka men, Shokirjon Rahimiy, Qayum Ramazon tayin etildik. Darsga bir ko'b muallimlar davom etmakchi bo'lib keldilar. U vaqtlarda Toshkent maorif sho'v'basida panturkistlarning to'dachilik yordamchilari hukm surar edi. Mana shular bir darsdan keyin bizni quvdilar, talabalarni tarqatdilar.

Bir kecha "Chig'atoy gurungi"ning majlisi bo'lg'an edi. Gurung a'zolari tomonidan yozilgan asarlarni o'qib, muhokama qilmoqda edik. Toshkentning eng katta tashkilotining birida turg'an bir o'rtoq[9] vintovka ko'tarib kelib, majlisimizga birdan kirdi. "Chig'atoy gurungi"ning maqsadini so'radi. "Siz dinga qarshi fikr tarqatar ekansiz, Muhammad payg'ambarning me'rojini inkor qilar ekansiz" deb taftishga kirishdi va bizni "mundoqa yo'lsiz harakatlar"dan man' qilib ketdi. Mana bularning hammasi panturkistlarning ig'vosi bilan bo'lar edi: "Men "Chig'atoy gurungi" proletar mafkurasini tashir edi" demayman, buni da'vo qilish jinnilikdir. Tuzuk, "Chig'atoy gurungi" bevosita siyosat bilan mashg'ul bo'lmoqni istamadi, yolg'iz til, imlo, adabiyot bilan shug'ullandi. Lekin uning ayrim a'zolari o'sha vaqtda so'l millatchi edilar. Shuning uchun ayta olamizkim "Chig'atoy gurungi" jadiclarning so'l qanoti bo'lib, u jadiclardan til, imlo, adabiyot va dinga qarshi ham panturkizm va o'zbek millatchiligi bilan ajralar edi. Mana bu tafsilot "chig'atoy gurungi"ning ko'rsatilgan ilmiy ishlarda panturkist, panislomistlarga nisbatan inqilobiy yo'l tutganini ko'rsatadi. Agar siz "Bu ilmiy to'garakning a'zolari o'zbek millatchilari edilar, shuning uchun bu to'garak qarshi qurulg'an bir tashkilot edi" desangiz, non orasidan kir izlamakdan boshqa bir ish qilmag'an bo'lursiz. "Chig'atoy gurungi" 20-yillarg'acha davom qildi. Bu vaqtg'acha uning o'z oldig'a qo'yg'an ilmiy yumushlari bajarilgan edi. Yangi imlo sho'ro maorif komissarligi tomonidan maktablarga kirgizilgan sho'ro hukumati tomonidan "Har millatning maktab tili o'z ona tilida bo'lsin" deb e'lon etilgan asos bilan o'zbek tili ta'min etilgan edi. Bir tarafdin, kommunistlar firqasining milliy mas'alani to'g'ri hal qilmoqda bo'lg'ani va mustamlakachilik asoslarini yemirishda keskin yo'l tutgani kun sayin ochiq ko'rina boshlag'an, o'zbek millatchisi bo'lib turishda ham ma'qul bir sabab qolmag'an edi. "Chig'atoy gurungi" tarqaldi. Uning a'zolari bitta-bitta o'z xatolarini e'tirof qila-qila firqa safiga o'tdilar va bor kuchlari bilan bu kungacha xizmat qilmoqdalar.

Emdi o'zinning din bilan munosibatim haqqida so'zlashaylik. Men yuqorida aytg'an kabi bir vaqtlar diniy reforma tarafdori edim. Dinni xurofotdan ajratish degan xayolga berilg'an edim. Mana shu diniy reforma ketidan yurish, meni dinsizliqqa[10] olib bordi. Din xurofotdan ajralsa, nari tomonda hech bir narsa qolmag'anini ko'rdim. Dinning fan bilan hech bir vaqt kelisha olmag'aniga ishondim va shuning natijasida dindand qaytdim, dinga qarshi fikr tarqatdim. Mening dinsizligim o'zbeklar va tojiklar orasida hammadan burun, hammadan ko'brak mashhur bo'lg'an. Bu nuqtani inkor qilib bo'lmaydi. Dinsiz, xudosiz bo'lg'an bir kishining mutasavvif bo'la olmasligini onglamoq uchun juda oz bir muhokama kuchining sizda borlig'ini, ruxsat bersangiz, qabul qilaylik.

Maqolangiz bir yerida meni Turkiya sultonig'a maktub yozish bilan ayblaysiz. Men umrimda Turkiya sultonig'a maktub yozmadim, bu menga tamoman tuhmat! 1908 yilda yozg'an bir asarimda Buxoro xonligida hukm surgan diniy taassubni va shunga tayangan idora usulini eslaysizmi? U vaqtda Buxoroda bir kalla 2 tiyin edi. Hibs qilish, o'ldirish, sangsor[11] qilish kundagi odatlardan edi. U zamonlarda kitob yozishning o'zi "kofir"lik edi. Men shu vaqtlarda birinchi asarimni yozdim[12]. Buxoroning idora usulini, ta'lim-tarbiya usulini, bir ko'b rasmiy idoralarni tanqid qildim. Bu kitob Buxoroda tarqalar edi. Uning noshirlari bo'lg'an Buxoro jadiclarini tahlilga tushirmaslik uchun amirg'a qaratib bir so'z boshi yozdim va shuning bilan, go'yo, tanqidning unga emas, ma'murlariga oid bo'lg'anini ko'rsatdim. Bu zamondag'i Buxoroning javobi edi. Shuning bilan meni Buxoro amirining tarafdori deyish ham mumkin emas, mening Buxoro amiriga qarshi har vaqt kurashganim va kurashgan tashkilotlarga rahbarlik qilg'animni bilmagan yo'q.

So'ng to'rt-besh yilda yozg'an "Arslon", "Umar Xayyom" kabi asarlarimni, hatto tanqid qilg'aningiz "Namunalar" dag'i davrlar taqsimini shu yo'l bilan olib borishga tirishdim. Mazkur ishlarimda yanglishlar bo'luyi mumkin. Lekin bularni(ng) voqealarini tahlil qilganda bo'lg'an yanglishlardan hisob qilib, tanqid qilish, xato joylarni ko'rsatish kerak. Har bir yanglish yangi yanglish deb o'ylangan nuqtani, mening yigirma yil burung'i panislomistligim bilan izoh qilish to'g'ri ilmiy bir harakat bo'lmaydir. Azizim, O'rta Osiyoning olamg'a ma'lum bir madaniyati bo'lg'an, bu madaniyatning turkiy asarlari qolg'an. Bu asarlarning hammasig'a birdan "axlatlar" deyish, sizning muhokamangizning kirligidan chiqqan yangi bir istiloh bo'lsa kerak.

Men o'zinning yigirma yillik mutolaam, juda kuchsiz bo'lmag'an kutubxonam soyasida shu yo'lda ishlamoqdaman. Albatta, ishlarimda yanglishlar bo'luyi mumkin. Yanglishlarimni joy-joyi bilan ko'rsatish kerak, ko'zni yumib, og'izni ochib so'kishning ilmiy foydasi yo'q.

Maqolangizda katta harflar bilan "Maorif va o'qitg'uchi" jurnali Fitratning noshiri afkori edi deyish mumkin" deb yozasiz. Bunisi emdi uyot! "Maorif va o'qitg'uchi" Ramzdan burun bor edi. Ramz zamonida ham davom qildi. U har vaqt maorif komissarligining noshiri afqori bo'lib davom qildi. Jurnalning butun davom muddatida men yozg'an maqolamning soni o'nga bormaydir. U qanday qilib mening noshiri afkorim bo'lsin?! Biroz o'ylang. O'zbekistonning markazida firqa va sho'ro idoralarning ko'zlari ostida

chiqq'an bir jurnal uch-to'rt yil mening noshiri afkorim bo'ladi-yu, shuni sizdan boshqa hech kim onglamaydimi? Siz bu demago'gi bilan kimni tahrir qilg'aningizni o'yildingizmi?!

"Maorif va o'qitg'uchi" jurnalida Yassaviy haqida yozg'animg maqoladan so'z ochasiz[13]. Men u maqolamda Yassaviyni san'at yog'idan, mafkura tomonida qattiq tanqid qildim, uning zararli ekanini, uning ta'siriga qarshi kurashmoq kerakligini so'zladim. Yolg'iz uning ba'zi she'rlariga oldanib, uning yo'qsullar tomonida turg'anin qabul qilmoqchi bo'ldim. So'ngralari esa, fikrimning yanglish ekanini ongladim. Sizga yoqmag'an "Namunalar"imning muqaddimasida Yassaviy haqida boshqacha fikr yurgizdim. Siz "Namunalar" haqida tanqid yozmag'aningiz holda Yassaviy haqida uning muqaddimasidagi so'zlarimdan ko'z yumib, "Maorif va o'qitg'uchi"dagi maqolamg'a yopishasiz.

Bundan keyin Chig'atoy adabiyotining "mundariyasi" va "shakli" haqida fikr yurguzasiz. Boshlab Chig'atoy shoiri deb Navoyi bilan Yassaviyni ko'rsatasiz. Azizim, sizda chig'atoy so'ziga qarshi qiziq bir holat paydo bo'lg'an, o'zingizga yoqmag'an har kimni chig'atoy deb so'kmoqchi bo'lasiz, ishning bu qadari chegarani oshishdir. Yassaviy Chig'atoy shoiri emas. U Chig'atoy adabiyotidan burun o'tkan bir shoir. So'ngra Navoyidan namunalar olg'anda mening tartib qilg'animg va sizning tanqid qilg'aningiz kitobdan olmaysiz-da, Navoyining o'z devonidan, diniy mavzudagi baytlarni olasiz. Sizning u namunalariningizni ko'rgan kishi mening kitobimdan olg'aningizni gumon qiladir-da, menga hujumlaringizni qisman haqli ko'radir. Siz ham shuni istaysiz. Holbuki, Navoyining dinsiz bir shoir ekanini men da'vo qilmadim. Uning diniy parchalari bor ham ko'bdir. Lekin mening "Namunalar"imdagi asarlari bu qatordagi asarlar emas.

Navoyidan olg'an baytlarni tarjima qilishingiz bir oz "vadudona" bo'lg'an, ko'bi to'g'ri emas. So'ngra Navoyi bilan Yassaviydan berganingiz namunalariga suyanib, "Chig'atoy adabiyotining shaklidan ham foydalanish mumkin emas" deysiz. Lekin siz shakl bilan vaznni bir-biridan ajrata olmaganiz. Shakl deb vazn bilan ayrim so'zlarni olasiz. Holbuki, shaklga ifoda tarzi, majoz, istiora va she'rning butun (poetik) xususiyatlari kiradir.

Navoyining vaznidan foydalanish, albatta, mumkin. Mundan boshqa(si) Yassaviyning vaznidir. Yassaviy va Yassaviy maktabi shoirlarida barmoq vaznining chiroylik namunalari bor, foydalanish mumkin. Siz Yassaviyni chig'atoy shoirlarining aruz vaznida yozg'anlari o'ylab, shu xatolarga tushgansiz. Hatto ko'chirganingiz Navoyi bilan Yassaviy she'rlari orasida bo'lg'an vazn ayirmasig'a ham diqqat qilmaganiz...[14]

1919

Buxoro vaziri Nasrullohbey parvonachiga ochiq maktub

Ochiq maktub[15](Ey Vazoratpanoh[16], biz tartiboti jadidaga muhtojmiz)

Aniqdirki, hech qaysi millat hech bir zamonda bizda bo'lg'anidek yurti xaroblik, xalqi falokat, ayonlari pastkashlik, idora ahli fasod, zolimlarning qon so'rishi, ajnabiylar kalakalari, istiqbolining mushkulligi kabi illatlarga muhtalo bo'lmagan! Butun mamlakat va millatni shu ahvolga keltirib qo'ydikki, dunyodagi eng qiyin va tashvishli kunlarda yashayotgan odamlar ham bizning ahvolimizga ma'yus tortib, qon yig'lamoqdalar. Har qancha ko'z va quloqlaringizni berkitib olsangiz ham bu qadimgi islom millatining faryodi va bu muqaddas mamlakatimizning xarobligiga achinmay turolmaysiz. Lekin bu jimgina achinishdan ne foyda? Bu ketma-ket kelayotgan musibatlararo Siz kabi komil shaxsning harakatsiz achinishi va sukut holati qachong'acha davom etadi? Bu kun mazlum islom millatining eng oydin fikrli ziyolilari jaholat va g'afolatning ikki otiga minib o'z kamsitilishining payini qirg'ish uchun chopmoqdalar. Muqaddas va mehribon ona vatanimizning o'z haqini tanigan farzandlari zulm temir panjasidan tortib uni fano sahrasiga[17] tomon tortmoqda. Bu kun zalolat va gumrohlik zanjirining asiri bo'lg'an bizning holimizg'a Hazrati Rabb' ul-izzatning[18] rahmi bo'lib yuborilgan Sizsiz va bizning tojkor oliy hazrat padari mehribonimizni[19] hozirgi va kelgusi mushkulliklardan Sizgina xabardor eta olasizki, (amir) bizning ishlarimizni nazoratiga Sizni jalb etgan. Ya'ni Hazrati Xoliqning karami va adolatparvar podshohimizning lutfi Sizni nafaqat bu umri parishon va istibdodpesha bo'rilariga o'lja bo'lib, qo'ruvchisiz qolg'an qo'yilg'a mehribon cho'ponlikka emas, balki ularning ishlarini tanzim qilish[20], tartibga solish uchun yuborg'andir. Biz Sizning ishga tayinlangan kuningizni o'z hayotimizning muqaddimasi deb bildik va ishga ma'mur bo'lib kirishgan kuningizni o'z milliy bayramlarimizdek nishonladik. Taassufki, bugunga qadar intizor ko'zlarimizni qanchalar tikmaylik, istiqbolimizning saodati uchun tashabbus bo'ladigan biror ishni Sizdan ko'rmadik.

Ey, mehribon ona Vataning barkamol farzandi!

Ey, Buxoro ezilgan millatining besabot tarafdori! Siz umr bo'yi o'zining noz va tantanalarga boy og'ushida Sizni tarbiyalagan aziz va muqaddas vataningizning ishlarini xaroblik va parishonlikning qora kunlariga ulotirib qo'yib, uning ostidan o't yoqib kelayotgan balolarga muhtalo qilib, nega jim o'tiribsiz?! Hamisha haq dinimiz va shar'iy Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning adolatlari soyasida tinchlik o'rnatib kelingan vatanimiz kimsasizmi yo xarob holdami qoldi! Ming xil xavfu xatarlarga duchor bo'ldi! Soatma-soat Sizga umidvor tikilgan ko'zlarimiz yumilmoqda. Sizdan yordam va najot amallarini kutishdan tolmoqda. Siz nega jim o'tiribsiz? Shu mazlum islom ummatining umidi, hayotimizning barakoti Sizning say'-harakatingiz va himmatingizdir. Bu baxtsiz islom millatining xizmati va muqaddas shar'iy Dinimizning mustahkamlanishi, albatta, Sizdan lozimdir. Bu muqaddas xizmat yo'lida bir dam bo'lsin sustkashlik qilishga Sizning haqqingiz yo'q! So'zingizning nufuzi va ulug'vor ta'siri bo'lgani holda bu kufroni ne'mat xabaridan o'zligingizning ma'nosi nima? Nima sababdandirki, siz o'zingizdan lozim xizmatlarni oshkor, ochiq qilmaysiz? Turli firqalar orasida ulug' ishlarining tashabbuskori bo'layotgan o'sha himmat arboblarning Sizdan ne ustunligi bor? Ne mone'lik borki, tartiboti jadida vositasi bilan milliy saodatimizning yangi istiqbolli yo'llarini ochib, qadrimiz va taqdirimizni a'lo darajada sharaflay olmaysiz? Bir zoti komilning haqqi uchun Vatanimiz hamdo'st va hamdin kishilarga to'la bo'lsa qanchalar savob?! Bir millatning hayoti uchun qayg'urub, Allohning fazlu karamiga sabab bo'lmoqdan qaysi shuhrat ortiqroqdir? Raiyat orasida Sizga nisbatan ixlos va muhabbat bor, bu Yaratganning karamidirki, Sizni favqulodda nufuz sohibi qilib boshimizga yubordi. Oliy hazrat tojkor padari buzrukvorimiz, adolatparvar podshohimiz bizni tarbiyat va tanzim[21] etmak amrini Sizga bergan. Ne to'siqki, Sizni bu muqaddas xizmatdan qaytarsin?! Magar boshqalar g'aflatda qolg'an bo'lsalar, Sizda g'aflat qilmang. Boshqalar g'afolatning tashvishi Sizning g'afloatingizchalik bo'lmaydi. Nauvzibilloh[22], bunday muqaddas vazifani bajarishda sustkashlik qilsangiz ertaga intiqom olg'uchi Allohning huzurida nima deb javob berasiz?!

Nushiravon[23] namo'rd ki nomi neku go'zosht (Nushiravon o'lmadi, chunki yaxshi nom qoldirdi).

1919

Sharq siyosati

[24]

Bir kun qon tengizlarida botg'an, tamug' o'tlarinda ko'milgan Sharq bir kun tinchlik va taraqqiy beshigi edi. Bu kun oyoqlar taginda ezilgan Sharq bir kun madaniyatning yo'lboshchisi, bilim va hunarning o'chog'i edi. Ovro'pa dunyosi vahshat va bilmaslik cho'llarinda obdirab[25] shovqin-toshqig'! yurar ekan, Sharq dunyosi butun insoniyat olamini saodat va tinchlik o'choqlariga erishdurmak uchun ish ko'rub turar edi. Ovro'pa(da) bir mahalla oqsoqollig'i yo'q ekan, Sharqning "ko'zquchinos", "barahma", "iso", "zardusht" va Muhammadlari butun odam o'g'ullarini bir nuqtada to'plab to'g'ri va bilgili yo'lg'a kirguzmak uchun tirishar edilar. Chinlilar yozish uchun qog'oz yasag'anda ovro'palilar o'ng-so'l qo'llarini bir-biridan ayira olmas edilar. Zamon buzg'unlarindan qutulub tarix dunyosinda qolg'an Xitoy madaniyatining izlari bu kun dahi ovro'palilarni hayron qilmoqdadir. Bu kun tiriklikning har yog'indan qarag'anda taraqqiy va saodatning so'ng bosqichini bosib o'tgan ovro'palilar orasinda Hindustonda bo'lib o'tgan madaniyat zamonlarini ko'rmagani uchun qayg'urg'an bilg'uchilar bordir. Ovro'palilar din va kiliso[26] taassublariga berilib, bilmaslikning eng teran chuqurlariga tushg'an chog'da arablar, musulmonlar, Yunon, Eron va Hindustonda ko'mulub qolg'an madaniyatni tirguzdilar. Hind va Yunonda unutilib qolg'an bilim, hunar, hikmat va falsafani bir o'runda to'pladilar. Andalus, Misr(ni) biror madaniyat maktabi, taraqqiy o'chog'i, bilim beshigi qildilar. Bag'dodda - arab san'atchilari soat yasab, Ovrupaga yubarg'anda Parisning[27] u palladagi angellari[28] "bu quti ichida shayton"lar bor deb soatni tashlab qochg'an edilar. Bugungi madaniyat va mag'rur Ovrupaning shaharlarinda qam tinchlik va osoyish yo'q ekan, Bag'doddan Turkistong'acha tinch va osuda bormoq mumkin edi. Musulmon madaniyatining egalari yolg'uz o'zlarining emas, butun boshariyat dunyosining tinchlik, taraqqiy va saodati uchun tirishar edilar. Unlar hozirgi madaniy yirtg'uchilar[29] kabi o'zlarindan bo'lmag'an millatlarni hayvon sanamas edilar. To'g'ridurkim, musulmonlar dahi boshqa millatlarga qarshu urush ochdilar: to'g'ridurkim, musulmonlar dahi boshqalarning o'lkalarini olurg'a tirishdilar va oldilar, lekin unlarning jahongirliklari bu kungi madaniy Ovro'paning jahongirlikig'i kabi olingan o'lkalarning uluslarini talamoq, ezmak, yiqitmoq uchun emas, unlarni yanglish yo'ldan qaytarmoq, unlarning orasinda kirib "haq" deya topilgan o'z fikrlarini unlanga qabul etdirmak, butun dunyo ulusini "haq" va "haqiqat" tegrasinda to'pdamoq uchun edi. "Baytulmuqaddas"ni, Misrni, Andalusni, Istanbulni olgan musulmon huqumatlarining u yerlardagi xalqqa bergan huquqlari, qolg'an rivoyatlari tarix betlarindan o'churilmaqdadir. Arab boshliqlari bir o'lkani olg'anda u yerdagi ulusning tinchligini saqlamoq uchun biron biron yo'q shul qo'shun qo'yar va shul qo'shun chiqimlari uchun biron solug' olar edilar. Biroq yovning yurushig'a chidamasdan shul o'lkani tashlab chiqmoqchi bo'lg'anda ulus oqsoqollarini chaqurub "biz bu solug' oqchalarini tinchligingizni saqlamoq uchun sizdan olg'an edik. Bundan keyin tinchligingizni saqlay olmaymiz, shuning uchun bu oqchalarigiz bizg'a haromdir" deb olg'an solug'larini qaytarib ketar edilar. Afriqoga kirgan musulmonlar Amriqo va Afriqoni bosqon madaniy ovrupalilardak yerli xalqni bitirmak uchun tirishmadilar. Unlarga madaniyat berdilar. Amriqoga qo'noq bo'lub kirgan Ovrupa madaniylari Amriqo yerli xalqini bitirayozdilar, buni bilmag'an yo'qdir. Afriqoni bosib olg'an Ovrupa jahongirlari u yerdagi qora xalqni o'lat kabi o'ldurub turalar. Holbuki, musulmonlar Afriqoning Jazoyir, Tunis, Fas[30] kabi o'rularini olg'ach, u yerlarni taraqqiy etdurdilar, xalqini tinchlanturdilar, unlar I dan buyuk odamlar yetushdirdilar. Sharq o'zining tarixi, siyosati, hunari, insofi, adolati, axloqi va xidmatu e'tiborlari bilan uncha yuksalmish, u qadar taraqqiy etmish edikim, tasavvuri ham bizning miyalarimizg'a sig'maydur. Sharq madaniy yirtg'uchi emas edi. Sharq boshqalarning xalqlarini olmas edi. Sharq bashariyatning yuksalishi uchun tirishar edi. Sharq madaniyat o'chog'i, insof beshigi, axloq maktabi, bilim madrasasi edi. Biz, sharqlilar, bashariyatga qilg'an xidmatlarimiz uchun bu kungi qonli Ovrupaga qarshi yaxshig'ina maxtana olurmiz. Biz, sharqlilar, madaniyat yo'linda tutdigimiz xidmatlarda davom etganda bukun bashariyat dunyosini ko'b yuksak mavqe'larda ko'rmak mumkin edi. Negakim, Sharq bilim, hunar yo'linda Ovrupa jahongirlaridek o'rtoq qoni ichmak va orqadosh uyin talamoq uchun emas, insonlik dunyosini yuksaltirmoq uchun tirishar edi. Yo'zuqlar, esizlarkim, Sharq o'z yo'linda davom eta olmadi, madaniyat tarixining eng buyuk va eng tugal qoidatarindan biri shudir: bir ulus tirikchiligining har to'g'risinda yuksalib, taraqqiy qilib tinchlansa, biror yoqda kuchliroq biron biri ko'rinmasa, o'lkasi kengayib, oqchasi ko'paysa, ul ulusning bora-bora axloqi buzulur, totlig'i yo'ldan chiqa boshlar. Biz, sharqlilar, dahi tinchlik va rohat so'nginda buzulib qoldiq, yo'ldan ozdik, ezgu tilaklarimizni unuta boshladik. Bilim va hunardan yuz qaytardik, birlik va axloqdan ayrilduk, oqchag'a berildik, oqchag'a sotilduk, shuning so'ngida Xitoy, Turk, Fors, Arab va Hind mamlakatlarindan har biri o'z qo'nug'i bilan, o'z navbati bilan tinchlik va taraqqiy bosqichlarindan qulliq, yo'qsulliq chuqurlariga yumalab tusha boshladilar. Sharqning butun ishlari ongsiz beklar, tushunchasiz xonlar, miyasiz mullalar, bilimsiz eshonlarning qo'lig'a o'tdi. Bunlar Sharqning butun tuzuk va intizomini buzub yubordilar. Xonlar o'z qorinlarini to'ydirmoq uchun xalqni bir-biri bilan urushdirdilar, mamlakatning jonli va muhim o'rularini sotdilar, mullalar o'z istavlariga "din" otini toqib bozorg'a chiqardilar, din, tangri, payg'ambar, uchmox va tamug' orqali Sharq xalqini talay boshladilar. Sharqning taraqqiy yo'li ko'muldi. Saodat va tinchlik eshiklari bog'landi, saodatning eng yuksak tepasiga chiqqan Sharq yo'qsulliqning eng teran chuquriga tushdi. Sharqning Xitoyi, Eroni, Turoni, Arabiston bilan Hindustoni barisi bir turtki o't bilan, bilmaslik va g'aflat o'ti bilan yonib bitdi. Sharq g'aflat va bilimsizlik tamug'lariga yumalab yotaturg'an chog'da Ovrupa ko'zi uyqusindan yangigina tura(r) edi. Ovrupalilar uzun va zararli g'aflat uyqusidan uyg'ongach, och qolg'an yirtg'uchilar kabi Sharq ustiga otildilar. Dunyoning eng yog'li bir bo'lagi bo'lgan Sharq yirtg'uchi hayvonlar orasinda qolg'an semiz, lekin kuchsiz bir qo'y holatini oldi. Ovrupa yirtg'uchilari Sharqning har yonindan soldurdilar. Tish, tirnoqlariga ilingan yerlarini yirtib, uzub olaberdilar. Boyaqish Sharq o'z jonini qutqarg'ali ko'b tirishdi, tebrandi, qichqirdi, dodladi, yugurdi, hamla qildi, qochdi, qo'rqutdi, yalindi, esiga kelgan har yo'lg'a kirib ko'rdi. Biror osug'[31], biror unum, biror foyda ko'ra olmadi, nega-kim, unga oxsum[32] bo'lg'an yirtg'uchilarning kuchlari ko'b, tishitirnoqlari o'tkir edi. Anglizlar Hindustonni yutdilar, Misrni bosdilar. Adanga kelib Arabistong'a qo'l uzatdilar. Rus imperialistlari Qafqasiyoni taladilar, Turkistonga kirib, Xitoy, Afg'onga, Eronga ko'z tikdilar. Franso'zlar Tunis bilan Jazoyirni g'asb etib, Falastinga yukundilar. O'zining ibtidoiyligi bilan tinchgina yashab turg'an boyaqish Afriqo qit'asi Ovrupa jahongirlari orasinda bo'lindi. Bu olish-berishlarning hech biri urushsiz bo'lmadi. Ovrupaning och "qirg'iy"lari o'zlarining bilimsiz, johil dehqonlarining boshlariga no'xtalar[33] solib Sharqg'a tortdilar, unlar biror narsani onglamasdan Sharqdag'i ishchi va dehqonlar uzra soldurdilar, unlarning yozug'siz tinchgina yotg'an orqadoshlarini urdilar, o'ldurdilar, taladilar, talatdilar. Sharqning yozig'siz kishilarini o'z boylariga qul qilib berdilar. Ovrupaning ishchi va dehqonlari bu olish-berishdan nima qozondilar? Bitmas yaralar, tuganmas qayg'ular, boshqa hech yo'q...! Ovrupa jahongirlarining Sharq sari yurishlari boshqalarning qonini to'kub o'z qursoqlarini to'ldirmoq, o'zgalarning uyini yondurub, o'z qozonlarini qaynatmoq uchun edi. Lekin unlar tilaklarini ulusg'a bildirmas edilar. "Sharq xalqi vahshiydir, ularni madaniylashdurmak uchun borarmiz", "Sharq xalqi bilimsizdir, unlang'a bilim tarqatmoq uchun borarmiz", "Sharq xalqini xoch buyruqlariga[34] bo'ysundirmak uchun borarmiz", deb o'z ishchi va dehqonlarini aldab, bizim ustimizga yuborur edilar. Unlar bu yolg'on bahona va so'zlarni yolg'uz o'z askarlari orasinda emas, biz sharqlilarg'a ham uyalmasdan aytib turalar: "Siz, sharqlilarg'a madaniyat yo'qdir, sizlar ibtidoiy vahshiy kishilar erursiz, sizni isloh etmak, tartib bermak, o'qutmak, madaniylashdurmak keraqdir, bu ish bizning (ya'ni Ovrupaning) vazifalarimizdir. Yer yuzining eng obdon

bo'lagi bo'lg'an Sharqni ishga solmoq, bashariyat dunyosining eng katta yig'ini bo'lg'an sharqlilarni vahshatdan qutqarmoq bizga farzdir. Mana shuning uchun biz (ovrupalilar) Sharqg'a keldik. Sharq hukumatlarining bir qismini oldik va qolgan qismini ham olmoqchi bo'lub turamiz" deyarlar. Bu so'zlarning Sharq to'g'risidagi bir qismi to'g'ridir. Voqean, bilimsiz qolmishdir, Sharq Ovrupaga qarag'anda ko'pdan-ko'p orqada qolmishdir. Lekin Ovrupaning Sharqqa madaniyat berishi yol'g'ondir. Ovrupa jahongirlari Sharkdan olgan mamlakatlarda taraqqiy va madaniyat degan narsani qat'iy ko'rguzmadilar, ko'rguzmakka tirishmadilar. Ovrupaning bizga beradigan narsalari belgilidir: safohat, axloqsizlik, qumor va sharobxo'rlik. Sharqning din va odatlariga qat'iy to'g'ri kelmagan fohishaxonalarni o'lkamizda Ovrupa jahongirlari ochdilar. Butun bashariyat hayotiga, maishatiga, ishiga rahnalar solg'uchi sharob do'konlari yurtimizg'a shul Ovrupa boylari "himmati" bilan qurildi. "Faranga"[35] degan qo'rqunch kasal Sharqg'a Ovrupa jahongirlarining bosqinlari bilan keldi. Xulosa: Ovrupa jahongirlari Sharqg'a bugungacha axloqsizlik va buzqliqdan boshqa bir narsa bermadilar.

Sharqg'a madaniyat maktablari, insoniyat madrasalari ocharmiz deb kelgan Ovrupa jahongirlari fohishaxona va mayxonadan boshqa bir narsa ochmadilar. Ajabo, Ovrupa jahongirlari bu ishlarini bilibmi qildilar, bilmasdanmi qildilar? Albatta, bilib qildilar, jo'rttaga qildilar. Unlarning tilaklari bizg'a madaniyat berib, bizda maorif tarqatish, bizni taraqqiy etdurmak emas, turli fohishaxonalar, mayxonalar ochib, bizning axloqimizni buzmoq, bizning sog'lig'imizni xarob etmak va urug'imizni qurutub, bizni ishdan chiqarmoq va o'z qo'llariga muhtoj qilib qo'yomqdirlar. Unlar Sharqxalqini butun yo'q qilib, Sharqni o'zlariga moya[36] qilmoqchi erurlar: Ovrupa jahongirlarining bir "kulguli" va "yo'q etur" siyosatlarini Sharqning musulmon dunyosining har yog'inda bir turiligina joriydir. Angliz boylari Hinduston xalqini bitirmak uchun qanday tadbirlar ko'rib, qaysi yo'llar bilan ketsalar, fransuzlar Jazoyir va Tunis xalqini bitirmak uchun shulgina tadbirlarni ko'rib, shulgina yo'llar bilan ketalar.

Ovrupa jahongirlari Sharqqa tutkan siyosat yo'llari shunlardir: Sharqning axloqini buzmoq, ko'nglini diniy va milliy muqaddasatidan[37] sovtuq, sharqlilar orasida ayriliq va yovliq solib bir-birlariga qilich chekdurmak, sharqlini ishsiz, yalqov, och va yalang'och qilib o'zlariga qul etib olmoq, yuvosh-yuvosh sharqlining qo'lindan yer va qimmatli narsalarini yuz turli hiylalar bilan tortib olmoq, Sharq xalqini turli yo'llar bilan sekin-sekin yo'q qilmoq...! Angliz va fransuz jahongirlari tomonidan Xitoy, Hind va Misrda ochilgan fohishaxona va mayxonalar, yuborilgan po'plar va missionerlar, ochilgan maktablar, barisi shuning uchundir. Rusiya Nikolay hukumati bizning Turkistonimizda ham shul tadbirlarni ko'rmadimi?

Ovrupa jahongirlari dunyoning eng yomon zulmini qilaturub, o'zlarini odil va insonparvar aytdilar. Qani, ko'raylik-chi, bunlar bizning musulmon va Sharq dunyosiga qanday adolat qonunlari tutub, qanday insoniyatparvarona ishlar qilganlar? Ovrupa jahongirlarining qoidalari, buyuk qursoqlilari, Sharqdan ko'b yer olganlari angliz hukumatidir. Sharqning oltun xazinalari bo'lg'an Hinduston qit'olari anglizlar jahongirining qo'lidadir. Lekin bu hokimlik adolat qonunlariga muvofiq tenglik negizlariga qarab ko'rulmagan. Bu qarov qonli hokimlikning asosi zulm va insofsizliqdir. Hindustonda egalari bo'lg'an yerli xalq bilan qo'noq bo'lub kelgan ikki-uch qadrsiz angliz orasida tenglik yo'kdir. Hindustonda yerlilar uchun boshqa, anglizlar uchun boshqa mahkamalar bor. Yerlilar uchun ayri zindonlar, anglizlar uchun ayri turmalar bor. Anglizlar uchun yasalgan mahkama, turmalar qonunli, adolatli, hafz sihatiga[38] muvofiq va tinch yasalgan. Yerlilar uchun qurulg'an mahkama va zindonlar esa tartibsiz, buzuq, zolimxona, qorong'u va qo'rqunch bir shaklda qurulg'an. Yerlilar uchun tuzangan "jazo" qonunlari anglizlar uchun tuzulgan qonunlardan ko'p farqlidir. Bir pichoq ko'tarib yurgan, bir angliz itiga tosh otgan, bir tovuq o'g'irlagan bir yerli tutulsa, necha oylik qorong'u va kirli turmag'a buyuruladir. Bir hindlini o'ldurgan, bir bonkani urgan anglizga esa eng qulay, eng kichkina bir jazo beriladir yoxud avf etiladir. Hindustonda bir angliz itiga tosh otib, olti oy zindonga buyurilgan yerli ko'bdirlar, lekin yuz hindlini o'ldurub, qonun yonida mas'ul bo'lg'an bir angliz topilmaydir. Angliz jahongirlarining Hindustondagi pilonlari Hinduston xalqini oqchasiz, yap-yalang'och qo'yub halok etmaqdir. Angliz hukumati Hindustondan yilda 4 yuz ellik milyo'n so'm oladir. Ovrupaning siyosati qonunlariga qarag'anda har o'lkadan hukumat xazinasiga kirgan oqchani shul o'lkani obodlig'i va taraqqiyosi uchun sarf bo'lishi lozimdir. Angliz hukumati shul oqchadan milyo'ng'acha so'mini Hinduston maorifi yo'linda sarf qiladir. U ham Hindustondagi angliz bolalarini o'qutmoq uchundir. Ikki yuz milyo'n so'mini Hind angliz bo'yunturug'i ostida saqlag'uchi Hind askariyaga sarf qilib, qolganin o'z qopchug'iga tiqadir. Shuncha oqchadan Hinduston xalqi uchun bir chaqaliq foydoy yo'qdir. Har yili Hinduston xalqining yuzdan uchtasi ochliqdan o'lub ketadir. O'zlarini insoniyat oshig'i atagan angliz jahongirlari bunga kulubgina qaramokdan boshqa ish ko'ra olmadilar. Unlarning Hindustonda qozonishi kunda yigirma so'm, hindliniki kunda bir so'mdir. Buning sababi nimadir? Anglizning qo'lini buncha ochib, hindlining qo'lini bir-birila bog'lag'an kimdir? Bir hindlini bir anglizcha ishlamaqdan man' qilgan quvvat qaysi quvvatdur. Shubha yo'qkim, angliz hukumatidir. Angliz jahongirlarining Misrda yurutgan siyosatlarini Hinddag'i siyosatlaridan yaxshiroq emasdir.

O'zlarini dunyoning eng madaniy, eng insofli va insonparvar deb topilgan Faransiya jahongirlarining zulmlarini ko'rgan kishi anglizlarga rahmat aytmadan tura olmaydir. Qirq-ellik yildan beri usmonli hukumatidan tortib oldig'i Tunis va Jazoyir musulmonlariga qaralik, unlarning hollarini ko'z oldina keturaylik. Faransiyaning jahongir hukumati o'zining butun ma'murlari bilan Tunis, Jazoyir musulmonlarini yo'q qilmoq uchun ont ichganga o'xshaydir. Hurriyat, musovot[39] va huquqi basharning beshigi bo'lg'an Faransiyaning qonunlari Jazoyir bilan Tunis kuniga solmagan, Tunis va Jazoyir havosinda tiriklik qilib yurgan musulmonlar hurriyat va insoniyat homiysi bo'lg'an - faransuzlarning bog'langan qo'llari va bo'g'ozlangan tupunlari erurlar. Faransiyaning eng yaqin bir qishlog'inda solingan maktabining izi ham Tunisning eng katta bir shahrida topilmaydir. Faransiyaning eng ahmoq bir bolasi berilgan so'z erki (so'z hurriyati) - Jazoyirning eng ulug' bir faylasufiga ham berilmaydir. Tunis, Jazoyir musulmonlariga "hurriyat", "huquq", "adolat" degan anqo qushlari qo'lg'a solmaylar. Faransiyaning ma'murlari va yuzboshilari Tunis va Jazoyirga kelganda ilon kabi og'uli, shaytondek yovuz, somonday yengil, "Qorong'a" o'xshash boy bo'lub qolarlar. Tunis va Jazoyir xalqining nomuslari bilan o'ynab, jonlari bilan tijorat qilib turarlar. Tunisning ekin yerlari musulmonlaridan butun olunub faransuz boylariga berilgan, yerli xalqning qo'linda ekin yeri sira qolmag'an, barisini faransuz boylari aldab-suldab, qo'rqutib, urib olganlar.

Bu kun butun Tunis ekinchilari faransuzning eng qadrsiz xidmatchilari bo'lub ishlaylar. Faransuzlarning butun fikrlari Tunis va Jazoyir musulmonlarini ish qilib yo'qotmoq va unlarning yerlariga ega bo'lmoqdir. Ovrupa jahongirlari bir millatni yo'q qilmoq uchun hammadan burun u millatning milliy va diniy axloqini buzalar. Undan keyin milliy tilini churutalar. Faransuzlar Jazoyir o'lkasida bu yovuz fikrlarini biroz yuruta olmishlar. Bundan olti yil burun Tunis va Jazoyirga sayohat uchun borg'ani misrli bir yozg'uchi o'z sayohatnomasida shul so'zlarni yozadir[40]: "Faransiya buzuqlig'i Jazoyirning kentlarida uncha ta'sir qilmagan bo'lsa ham, shahar kishilariga xo'b yomon ta'sir etgan. Milliy axloklarini, dan asar yo'q, milliy tillari yo'qola yozgan, Jazoyir xalqining bir bo'lagi o'z tillarini sira bilmaylar. Faransuzcha gapuralar, bir bo'lagi bilsalar ham, tugal bilmaylar. Gapursalar so'zlarining yarimi arabcha, yarimi faransuzcha bo'lub chiqadir. Yana shu misrli sayyoh aytdir: "Bir yag'inchoqlariga[41] bordim.

Yag'inchoqda hozir bo'lg'an kishilarning barisi arab edi. Biroq so'ylashlari faransuzcha bo'lar edi. Tanishlarimdan biriga aytdimkim: mana shul majlisda biroz gapirsam bo'lurmi?

Tanishim: Qaysi tilda gapurasan?

Men: Arabcha.

Tanishim: Bunlar birortasi ham arabchani onglamaydir.

Men: Bunlar arab emaslarmi?

Tanishim: Arab, lekin o'z tillarini unutkanlar...!

Mana shul so'zlarning har biri faransuzlarning tub tilaklarini yaxshig'ina bildiradir.

Ovrupalilar, ayniqsa, faransuz va anglizlarning tilaklari bizni bitirmaqdir. Biz unlarg'a qancha do'st bo'lsak, qancha yaxshilik qilsak, o'z jonimizni yo'llarinda qurbon etsak, yana bo'lmas, unlar bizga yaxshi ko'z bilan qaramaslar, bizni bitirmak fikrini tashlamaslar, niyatikim, umumiy urushning birinchi yillarinda Tunis musulmonlari Faransiya hukumatig'a murojaat qildilar: "Qancha askar istasangiz berarmiz, hammamiz urush maydonlarig'a borib yovlaringiz bilan urusharmiz, jonimiz va molimiz bilan sizga ko'makchi bo'lamiz. Siz ham bizga o'z faransuzlaringizga berilgan huquqni beringiz! Bizga o'gay ko'zi bilan qaramangiz, Faransiyada yurutulgan adolat qonunlarini bizning o'lkada ham yuritingiz, deyalar. Faransiya hukumati qabul etmadi. Hindustonlilar ham shul urushda anglizdarg'a qancha xidmat qildilar, qonlarini angliz foydasi yo'lida suvdek to'kdilar. Hind musulmonlari o'zlarining xalifalari bo'lg'an Turkiyaga hujum etdilar, Dardoniya[42] yoninda qancha dindoshlarini shahid etdilar. Angliz hukumati yolg'uzg'ina shul hind oqchasi va shul hind qo'shuni[43] bilan Olmoniya va Turkiyani yenga bildi. Urush bitgandan keyin angliz hukumati shul jonkuyar hindlilarga qarab: "sizning ko'magingiz bilan shuncha ish bo'ldi, mana bu haqni oling, siz manim do'stlarimsiz" deydimi? Albatta, yo'q...! Bu kun hind xalqining uyi yana shul angliz to'pi bilan yiqilib yotar, bu kun hind ulusining boshi yana shul angliz qilichi bilan kesilib turadir.

Shul besh yillik uruedda Eron hukumati angliz yo'ldoshlarig'a ko'b yaxshilik qildi. Dindoshlari bo'lg'an turklarga qo'shilmadi, qo'shilg'an qabilalarg'a "yog'iy" deb qaradi, yov muomalasi qildi. Angliz qo'shinig'a yo'l berdi. Urush bitgach, mal'un anglizlar unga xo'ppokda[44] bermadilar. Eron vakilini sulh majlisiga kirgazmadilarkim, Eron istiqololini qabul etmadilar demakdir. Eron shohini Lo'ndiraga chaqirdilar. Shoh Lo'ndiraga borib, ehtimolkim, angliz kuchi ostinda Eron istiqololining o'lum qog'ozinda qo'l qo'yub kelar.

Rusiya imperatorlik hukumatining bizga qilg'an zulmlari anglizning Hindustonda qilg'an zulmlaridan qolishmas edi.

Ovrupa jahongirlarining buncha haqsizliqlari, bunday yovuzliqlari yolg'uz musulmon dunyosig'a emas, butun Sharqg'a qarshi edi. Necha yuz yildan beri chet yoqg'a chekilgan "och qornim, tinch qulog'im" deb o'turg'an siyosat dunyosining hech bir ishiga qatnashmagan Chin xalqining dag'i rohati shul Ovrupa jahongirlari tomonidan buzuldi. Bundan qirq-ellik yil burun Jopo'niyo xalqi ham shul Ovrupa jahongirlari tomonidan ezilib tura edi.

Ovrupa jahongirlari Sharqdan, to'g'ridan-to'g'ri o'z qo'llarig'a o'tkan o'lkalarigagina bu zulm va bu insofsizliqlarni qilmadilar. Bu kungacha qo'llarig'a o'tmagan o'z boshli, mustaqil Sharq davlatlarini ham ezdilar, taladilar. Angliz, faransuz jahongirlarining Turkiya o'lkasinda qilg'an ishlari davlatlar huquqig'a, insof va adolat qonunig'a butun muxolifdir. Bukun har eronlining yuragini ochib ko'rganlar angliz xanjari bilan ochilgan ko'b yaralarni ko'rarlar. Turkiyaning toshlar va kesaklaridan har birini ko'tarib qarag'anlar Ovrupa qilichi bilan to'kulgan qon tomchilarig'a uchrarlar. Turkiyaning dohiliy ishlarig'a qo'l uzatmoq, Turkiyaning taraqqiy yo'lini bog'lamoq, Turkiya hukumatining e'tiborini yo'q qilmoq ovrupalilarg'a o'yinchoq bo'lub qolg'an edi. Mustaqil, betaraf va sulhchi bo'lg'an boyaqish Eron o'lkasi Angliz va Rusiya jahongirlarining oqchalari bilan hozirlangan ixtilol[45] va isyonlar va o'z boshli bo'lg'an bu hukumatning dohiliy ishlarig'a qo'l uzatmoqg'a kimsaning, "boshqa bir davlatning" haqi yo'qdir. Lekin, bu qonun Sharqdavlatlarig'a yurutulmaydir. Ovrupaning eng qadrsiz va eng soyig'siz[46] kichkina bir hukumati bo'lg'an Qorabog' hukumati Sharqni qadrli hukumati bo'lg'an Turkiyaning dohiliy ishlariga qotisha, qo'l uzota edi. Ovrupaning insofi, madaniy davlatlari uning bu ishiga kulubgina qaray edilar. Tunis va Jazoyirda musulmonlarni soyimligi va muqaddas shayxlari xonaqoh ichindan tortilib, dor yog'ochiga osiddilar. Turkiyaga tobe' bo'lg'an "Qarib"[47] otasindagi musulmonlarning yozug'siz bolalari ona qorindan chiqaturub o'tga solindilar, mustaqil bir Sharq davlati bo'lg'an Eronning buyuk mujtahid[48]lari Rusiya va Angliz ko'nsullarining tilaklari bilan dorg'a osiddilar. Nikolay hukumati zamonida rus qo'shini Imom Ali Rizoning[49] sharafina to'pga tutdilar, anglizlar butun musulmon dunyosining muqaddas imomi bo'lg'an Hazrat Alining ravzasiga[50] to'p otdilar, insofli va madaniy (!) Ovrupa davlatlaridan birortasi ham tovush chiqarmadi. Lekin Turkiyada bir armanining burnindan yolg'ondan qon chiqq'anda Istanbul sohili Ovrupa urush kemalarindan to'lar edi. Bu madaniy yirtg'uchilar Istanbulni olib vahshiy musulmonlarni (!) u yerdan quvmoqchi bo'lar edilar. Buncha zulm, buncha insofsizlik va buncha vahshiylikdan Ovrupa jahongirlarining tilaklari o'lkalari olinmay qolg'an Sharq davlatlarini ham biturmak, butun Sharq yerlarini olib Sharq xalqini qul qilmoq edi. Bu ish Ovrupa jahongirlariga bir oz qiyin tushdi. Sharq hukumatlarini biturmak, Sharq o'lkalarini bosmoq qulay edi, biroq olingan o'lkalarni o'zaro bo'lushtak qiyin edi. Qaysi moyli bo'lagini kim olar edi, suyaksiz ta'mli o'runlari kimga tegar edi. Ovrupa jahongirlarini ko'brak tushundirgan narsa mana shul ulashmoq edi.

Ovrupa jahongirlari shul mas'alani esga olgach, ishlari qiyinlashdi. Moyli bir kesim et ustiga yig'ilgan och itlar kabi bir-biriga qarashlari o'zgardi, ko'zlari qotisha boshladi, har biri o'zgasiga otimoq, uni ezmak yetadi. Sharqning eng yog'li qismlari bo'lg'an Misr va Hinduston angliz qo'linda edi. Shuning uchun boshqa jahongir davlatlar shunga ko'z tikdilar. Har birlari shul moyli kesimlarni angliz tirnok darindan tortib olarga tirishdilar. Rusiyaning Turkistonni olishi, Faransiyaning Misrga istiqolol tilovlari, Olmoniyaning Turkiyaga yaxshiliklari barchasi shul "Hind uchun kurash" degan mas'aladan chiqq'an edi. Yo'qsa, Faransiyaning Misr musulmonlarig'a do'stligi Olmoniyaning Turkiyaga do'stligi kabi yolg'on va bo'sh edi. "Hind uchun kurash" degan mas'ala bora-bora ulg'aydi, "Sharq uchun kurash" shaklini oldi. Ovrupa jahongirlarining har biri butun Sharqg'a hokim bo'lmoq uchun o'zgasining ko'zini chiqarmoqchi edi. "Sharq" degan bu go'zal sevgili xonimni butun o'ziniki qilib olmoq uchun eng tirishgan davlat Rusiya imperatorlig'i edi. Rusiya jahongirlari Qafqas va Turkistonni olg'andan keyin Hinduston sari ikki yo'l hozirlag'an edilar: "Istanbul va Misr orqali Hinduston", "Afg'oniston yo Eron orqali Hinduston". Anglizlar Rusiya jahongirlarining bu tushunchalarini onglag'an edilar, Shuning uchun bor kuchlari bilan Afg'on, Eron, Buxoro, Turkiya hukumatlarining o'z boshlilik (istiqolol)larini saqlashga tirishdilar, biroq Rusiyaning kuchi kundun-kun ko'paya boshladi. Rusiya shul holg'a keldikim, bu kun-erta Hindustonga yurush qilarini har kim sezdi, Hindustonni anglizlardan tortib olarig'a har kim ishondi. Bu "balo"dan qutulmoq uchun anglizlarga birgina yo'l qolg'an edi: ishqilib, Rusiyaning boshiga bir tayoq urmoq. Anglizning shayton siyosati uchun bu ish qiyin tushmadi. Anglizlar Jopo'niyoga yondoshdilar. Jopo'niyoni Rusiya uzra soldilar. Rusiya jahongirlari tegishli tayoqni Jopo'niyodan yeb, sulh qilg'andan keyin angliz bilan onglashmoq va kelishmaktning kerakligini bildilar. Anglizlar bilan so'ylashib onglashdilar,

mushohadalar yasadilar.

Ovrupa jahongirlari bir yo'la bir-birlari bilan yov bo'lub, bir-birila urusha berganda buning so'nggi o'zlari uchun yaxshi tushmas edi. Shuning uchun ba'zilar o'zaro so'ylashib kelishdilar, uyushmalar yasadilar. Rusiya, Angliz, Faransiya davlatlari birlashib "ilashgan uch davlat" ("e'tilofi musallas" davlatlari) bo'ldilar. Olmoniyo, Italiya, Avstriya-Mojoriston davlatlari birlashib "uyushgan bir davlat" ("ittifoqi musallas" davlatlari) yasadilar. Bu davlatlar so'zdagina umumiy sulhni saqlamoq, umumiy urushning yo'lini bog'lamoq uchun yasalg'an bo'lsalar ham haqiqatda buyuk va sankarsiz bu urush uchun tayyorlik ko'rub tura edilar. Bu ikki "davlatlar to'dasi" ("hay'ati duvaliya")-dan har bir topqon boyliklaridan ko'bragini urush yaroqlari tayyorlamoq yo'linda hormay, tinmay sarf qilar edilar. Bilim va hunarning ko'magi bilan shahar singari kemalar, tomug' ko'rinishli to'plar, tog' gavalali uchg'uchlar yasab tura edilar. Bunlarning barisi dunyoning taraqqiysi uchun emas, kuchsizlarni ezmak uchun, Sharqni yutmoq uchun edi. Boyaqish Sharqning yutulmag'an davlatlari o'zlari uchun eng osig'li yo'l deb shuni topdilarkim, Ovrupada bir-birig'a qarshi yasalg'an shu ikki to'dani orasindagi dushmanliqdan foydalanib, o'z borliqlarini saqlasunlar. Bir kun angliz va yo'ldoshlarig'a yobordilar, bir kun Olmoniya va o'rtoqlarig'a yalindilar. Shul ish bilan hurlikli, qorong'ular orasinda o'z borliqlarini saqlay oldilar. Sharq va G'arb ishlari shul yo'llarda yurub kelaturg'anda 1914 da Saroy o'ramlaridan birinda "serb" yigitining to'pponchasidan bir uchqun chiqib butun dunyo yong'iniga sabab bo'ldi. Butun Ovrupa jahongirlari orasinda ochilgan bu qonli urush Sharq mazlumlariga ko'b yaxshi fursat beradi, Sharqning qutulish soati kelgan edi. Sharqning bunda vazifasi katta-kichik, musulmon, majus demasdan birlashmak: bir-birining qonini ichib turgan Ovrupa yirtg'uchilari qarshisidan bir kuch va bir qo'l bo'lub chiqmoq edi. Bilimsiz qolg'an Sharq bu to'g'ri yo'lni ko'ra olmadi. Bu fursatni ham qochirmas. Sharqli yaxshilikni unutmaz. Sharqli sizdan bir yaxshilik ko'rgandan keyin sizga tirsak ko'rsatmas. Sharqda sarmoyaga e'tibor bilan ovro'pa darajasinda kapitalizmchilik yo'qdir. Sharq Uluslari ko'bachilik e'tibor bilan ekinchi va ishchi erurlar. Sharq ekinchilari orasinda rus alpovutlari yanglig' egalari topilmaydir. Shuning uchun Sharq uyg'ongach, sutsiolizm asoslaridan qattig' suratda bosh tortmas. To'g'risini aytg'anda Rusiya xukumati Sharq bilan kelishmak va ittifoq etmakka majburdir.

1919

Johilona taassubg'a misol

Maqola[51]

Buxoro shahrining o'ramlariga[52] ushbu mazmunda bir e'lon yopishrilg'an edi: "Yangi chiqq'an jadidlar bolalarimizning e'tiqodlarini buzalar, munlar hunarlarinda hech kim bolasini o'qutmasin, o'qutsa shul kishini o'ldirajakmiz, jadidlar jivlashub[53] o'lturmasunlar, agarda jivlashub o'tursalar, biz onlarning boshlarini kesarmiz, jadidlar namoz birla ro'zani, zakotni o'tamaylar, munlar kofirlar, qonlari halol" (Bu e'lonla bir hadisda[54] yozilg'an).

Boshqa mamlakatlarda munday ma'nosiz, imlosi buzuq, axmoqliq alomati bo'lg'an e'lonlar, yozuvlarning ahamiyatlari bo'lmasada, Buxoro kabi o'runda afkori umumiyaning mundan mutaassir bo'lubi mumkin. Shul sababli munday johilona taassubg'a qarshi iltifot etmay qoluv bizning uchun mumkin tugul[55].

Yozuv yoza bilmay turib, shu shiy e'lon yozuvlarig'a "jadid"larning maslaklari nindi[56] narsadan iborat ekanligini biddirur'ga hojat bor.

Buxorolilarning tijorat, axloq va ilm, sanoat va hunar, maishat jihatlarinda butunlay ortda qolg'anliqlarini "e'lon" yozuchilar bilmasalarda, boshqalar bilalar. Tijorat maydonlarinda, tahsil madrasalarinda, axloq to'g'ivlarinda[57] o'z ishlarining qoidasini va zibarini[58] bir yahudiy qadar biluvchi ongli kishimiz yo'q. Dunyoning telefon va teleg'rof hamda temur yo'llar kabi fanniy mo'v'ijizalarini ko'rub-da shunlarning sirlarini o'granur'ga tirishuchi odamimiz yo'q. Hatto madrasalarimizdan chiqub-da bir jamoatning kofirligini e'lon etuchilarimiz-da durust yoza bilmaylar.

Shu holni yaratub, bundan rizo bo'lub turuchi birg'ina musulmonda bo'lmasa kerak. Mana shu shiy[59] ravishda bo'lg'an ijtimoiy xastaliklarimizg'a davo izlovchilar "jadid"lardir.

Jadidlar "millatimiz, xalqimizning bu darajada tuban qoluvlarini, shu shiy martabada yomon kunlarga tushularini nodonlig'lari sabab bo'ldi, bizning uchun o'quv, ilm va ma'rifatg'a yopishuv(imiz) lozim. Vatanimiz, mamlakatimiz va millatimiz ilm nuri birla yoqtursun, din ham dunyo ilmlari birla jihozlansun. Bu hol endi bizning uchun farz bo'ldi, eski maktablarda sakkiz yillar o'qub-da. Eron xalqtarining ichkilik va ishq kabi safohatlarindan iborat bo'lg'an adabiyotdan boshqani bilmovchi bolalarimiz yangi maktablarga kirub din ham dunyo uchun foyda beraturg'an lozim narsalarni o'qisunlar, hisob va yozuv bilsunlar, to'rt gurli fan o'qir uchun madrasalarimizda o'n sakkiz yil yotuvi shogirdlarimiz o'n ikki yil madrasani-da tamom shartina yetishdurub o'n besh fan o'rgansunlar, madrasadan chiqub-da boshqalarni akfor[60] qilush tugul, balki musulmon qilub e'lon yozuchidarimizning imlolarini kishi kuldurmak darajada buzuq bo'lmasun, savdolarimiz hunar va sanoatimiz, ekunchilik[61] ishlarimiz bukungi kabi zabun holda turmasun, balki tuzalsun yaxshilansun!" deyalar. Muni "jadid"lar shuytib ravishda so'ylaylar va shu shiy yo'lda yuriylar. Ushbu maqsadlarimizg'a erishur uchun biz "jadid"lar Buxoroda maktablar ochdiq, lekin Buxoro hukumati neqdi falsafag'a ko'radur[62] bizning maktablarimizning davomini musoada[63] qilmadi, yashatmadi. Shul kunday berli biz maktabsiz qolduq. Mundan so'ng: "Maktab yo'li birla bo'lmasa boshqa bir yo'l birla tirishub qarayliq!" deb tijorat yo'lina kirdik va Buxoro hukumatidan ruxsat olub bir kitobchilik shirkati va bir ko'moch narsasi shirkati[64] tuzuvdik.

Kitobxonamizda gazit va jurnallar birla birlakta hadis va tafsir hamda dars kitoblari kelturub eski madrasatarning shogirdlarika uch yuz haq birla dars kitoblari sotdiramiz. Ko'moch shirkati dahi yuz mollarini uch yuz baho birla sotub foydasini(ng) ko'bisi "jadid" bo'lmag'an shirkatlar orasinda taqsim eto'b turadir. Demak, bizning ijtihodimizdan[65] "jadid" bo'lmag'an va "jadid"larni yaratmay turg'an odamlar foydalanalar.

Endi "jadid"lik maslakinda bo'dg'anlarning o'z hollarini-da bir oz ta'ruf qilaylik:

Bu "jadid"larning ko'braklari eski madrasalarda, darslarini eng yaxshi ravishda tamom etuchilar bo'lub oralarinda bu kunda zo'r mudarrislar va olimlar bor. Munlar tafsir va hadis darslari o'qutalar, o'qutmag'anlarida dars o'qituv lozim bo'lg'anda o'qituv'ga mahtaddirlar. Munlar yuzlar birla hadisi shariflarini xatosiz yodlag'anlar va durust onglaylar. Endi Payg'ambardan rivoyat etilaturg'an bir hadisni-da durust yoza bilmag'an, imlo hunarindan-da mahrum odamlar chiqsunlar-da shu shunday odamlarni akfor etsunlar, akfor birlagina qanoat etmay, qonlari halol bo'lub birla fatvo bersunlar. Shu shiyimi insof? Bumi musulmonliq? U otish o'ynovchilar[66], aroqi ichuchilar va butun amrlarini fisqu fujur yo'lida yozdiruchilar Buxoroda oz tugul. Milyo'nlar Sirla insonlarning qonlarini suv kabi oquzib turuchi va g'oz minglar birla bolalarini, xotunlarini yetim va kishisiz qoldiruchi bu kungi zo'r suqishdan ibrat-la hamma kayf va safo majlisleri qurub musulmon bolalarini o'ynatuchilar-da ko'b. Shu shiyday xalqlar ozg'ina-da taqti' qilinmag'anlari holda islom va musulmonlarning taraqqiysi uchun tortishuchilar akfor qilinsunlar, qonlari muboh

ko'rilsun! Diyonat shu shiymi? Bumi odamchilik?!

Qur'oni karim musulmonlig'ni da'vo qilib salom beruchilarni akfor qiludan man' etadir. Musulmonlarni akfor qiluchilar bilsunlarki, "Musulmon kishilarini akfor qiluchilar agarda shul kishi kofir bo'lmasa, o'zlari kofir bo'lurlar" mazmunida hadisi shariflar Buxoriy[67] birla Muslim[68] sahihlarinda bor.

e'lonchi afandilar, fitna qo'zg'atuchi o'rninda Qur'on birla Hadis o'qub shunday oliy so'zlarni o'rgansalar va bilg'an narsalarini durust yozarg'a tirishsalar yaxshiroq va musulmoncharoq bo'lur edi.

Bu maqolani yozuvimiz o'limdan qo'rquvdan tugul. Biz o'lumdan qo'rqmaymiz. Haq yo'lda o'ldiriluv va o'luv botilliq[69] uzrinda yashovdan yaxshiroq. Xayrliroq. Biz muni Qur'oni karimda o'qub shung'a ayon keturganmiz. Balki muni yozuvdan maqsadimiz buxorolilarni insofg'a da'vat etuv hamda hukumatimizning diqqatini jalb qiluvdir. Hukumatimiz munday mas'aladan sukut etmasun, balki bu ishni taftish va tadqiq qilsun edi. Agarda ayb bizda bo'lsa, teyishli jazoni bersun, yo'qsa shunday e'lon yozuchilarni topub maydong'a chiqarsun. "Onlarg'a teyishli jazo bersun edi" demaymiz. Jazo bermasun, balki tanbeh va nasihat qilsun.

"Onlarg'a jazo bermasun" degan so'zimni vijdonim, iymonim birla yozdim. Chunki shul odamlar-da, saodatlari va taraqqiylari uchun tortishaturg'an millatimizning kishilaridir. Modomiki, biz bu millatning baxtiyor bo'luvini orzu qilamiz, e'lon yozub yobishdiruchilarning saodatlari-da bizning uchun matlubdir. Bizning maslakimiz muhabbat va ma'rifat hamda marhamatga bino qilinadir.

Durust, agarda bu to'g'rida biz gunohli tugul esak, hukumat taftish etub shul e'lon yobishdiruchilarni topsun, ammo jazo bermasun, balki nasihat yo'lindan onlarg'a Siz munday fitnalar qo'zg'atib yurmangiz! Munday yo'q ishlar birla shug'ullanuv o'rnig'a maktabga qirub yozuv o'rganingiz. Imlongizni tuzatingiz, mundan shu ilmlari komil odamlar huzurina borub tafsir va hadis o'qungiz desun...

1917

Buxoroda inqilob

Maqola[70]

"Dunyo havodis[71] o'chog'idir" demishlar, to'g'ri bir so'z.

Yigirma sakkiz(inchi) fevralda Rusiyada hurriyat bo'ldi, imperato'r Nikolay taxtdan tushurildi. Ko'nsul Miller Kogondan Buxoroga kirub, "Naminor" havlisida o'turdi.

Xalq og'zinda yangig'ina bir so'z tushub qoldi: "Buxoroda hurriyat bo'lar ekan. Muni yoshlarning bilagi bilan rus qo'nsulxonasi qila(r) ekan".

Ko'nsul Miller Buxoroning ba'zi jamoalaridan ba'zi odamlarni yonig'a kirguzib gapurdi.

Shul chog'larida qozikalon Burxoniddin bilan rais Abdullohx'o'ja Sadur[72] va mufti Asqar Masnaf[73] mahdum qatl etildilar.

Bunlarning o'rninda Muhammad Sharif maxdum qozikalon va Abdulsamad maxdum rais bo'ldilar. Bu hodisa Buxoro xalqining qizg'in bir hayajoiniga sabab bo'ldi.

Aprelning yettisinde amirimiz bir bayonnoma chiqordilar. Aprel sakkizida Buxoro yoshlari boydoq[74] chiqorib muborakbod qildilar. Mullalardan bir jamoa chiqib shul boydoq chiqorg'anlarni kofir deb o'ldurmoqchi bo'ldilar. Hukumat yoshlarning birini[75] tutub yetmish besh tayoq urdi.

Aprel to'qquzda qushbegi odamlari yoshlarning uylarini bosdilar. Topg'anlarini keturub "obxona" degan rutubatli bir mahbusda qamadilar va ikkitasini yana hukumat amri bilan yetmish besh tayoqdan urdilar. Yoshlar qochib Kogonga chiqdilar.

Abdulhamidxon raislikdan tushdi. Masnaf maxdum rais bo'lub keldi. Samarqanddan rus soldatlari kelib obxonadagi yoshlarni qutqordi.

Mana shunlar bir-ikki hafta orasinda bo'lub o'tgan hodisalar. Har biri - bir ma'no! Men aniq bilamankim, shul ishlarning haqiqat hikmatlaridan ruslar bilan yoshlar va Buxoro bekklaridan boshqa kimsa xabardor bo'lmadi. Buxoro xalqi na mullabachchalari, na sahroyilari, na kosiblari bu qorong'u voqealardan biror narsa onglayolmadilar.

To'g'ridir: har yonga yugurdilar, istamaymiz, "o'ldiramiz, g'azo[76] qilamiz" dedilar.

Nimani istamadilar, kimni o'ldurmoqchi bo'ldilar, kimning g'azosig'a chikdilar? Bunlarni onglag'anlari yo'q!.. Mana bul risolani[77] shunlarni onglatmoq uchun qo'lim'ga oldim. Negakim, tilagim haqiqatni xalq'ga onglatmoqdir.

Haqiqatni butun ochib onglata bilmak uchun bul risolani uch bo'lakka tartib etdim:

Buxoroning holi.

Fitna soatlari.

Yoshlarning tilaklari.

Ilikotimizdag'i[78] ishlarning buyukrog'i, albatta, ekinchilik, ya'ni dehqonliqdir. Biz bu yerda hukumatimiz bilan dehqonlar orasindag'i ishlarni arz qilamiz. Buxoroning dehqonchilik yerlari to'rt turlidir. Amlok[79], mulki hur[80], vaqf[81]. Buxoro yerlarining to'rtidan biri mulki hur bilan vaqf bo'lsa, boshqasi amlok bilan mulki hirojijiy[82]dir.

Mana Buxoroda shul amlokni nechuk olalar: Buxoro hukumati Buxoro tevarakindagi tumanlarning amlokini olmak uchun amloqdorlar tayin qiladilar. Ammo viloyatlarning amloklarini bekordan oladilar. Har viloyatning begi o'z viloyatig'a amloqdorlar qo'yadir. Har amlokdorning necha oti, sayisi[83] va xizmatkori bordir. Butun shunlarning muharriflari[84] bechora dehqonlarning ustindir. Amlokdorlar Buxoro yerlarini ikki turli istifo[85] qilalar. Birinchisi "xasbar"[86], ikkinchisi "xirman". Tumanlar, Chahorjo'y, Karmina, Xatirchi, Miyonkal yerlarini "xasbar" tariqi bilan istifo qilalar. Buxoroning boshqa viloyatlari xirman tariqi bilan istifo qilinadilar. Bu tariqlarning ikkisi daxi yamondir. Ikkisig'a ham zolim va insofsizlik ko'b bo'ladir.

Xasbar tariqi shudir: ekin yetishgandan keyin amlokdor o'z odamlari bilan balo qo'shuni kabi istifog'a chiqadir. Kechalar navbat bilan dehqonlarning uylarig'a qo'nub, kunduzlar istifo qiladir. Hanuz xirman qilmag'an ustiga kelib hech bir narsani bilmagan yo'ldoshlari bilan taxmin qilub bir narsa yozadir.

Xirman qilinmag'an, bichilmagan ekinlarning qancha chiqorini bilmak albatta kuch: munday taxminlar hech to'g'ri chiqmaydir. Yo amlokdorlarning va yo dehqonlarning haqi albatta ketadir, lekin bizning amlokdorlar o'z haqlarini boshqag'a o'tkarmaylar, balki dehqonning haqig'a javr qilarg'a tirishalar. Bechoraning o'n botmonliq ekinini yigirma botmon taxmin qilub daftarda yozalar.

Xirman istifosi shudir, dehqon ekinini bichib, xubbidan[87] chiqorib xirman qiladir va amloqdor janoblarini kutib turadir.

Amlokdor kelmaguncha bola-chaqasi ochliqdan o'lsa ham mehnat qilib yetishtirgan hosilindan ozg'ina ololmaydirlar. Olsachi, boshi baloda qoladir ikki chorak olsa, amlokdor xabar olib keladir va bechorani yog'ochlarga osib qamchinlar bilan urub, uch-to'rt

botmonning oqchasini oladir. Istifo zamoni kelgach, amlokdor janoblari odamlari bilan chiqib yuqorida yozg'animiz kabi xirmanlar orasida kezib, taxmin qilib daftarlarda yozadir.

Amlokdorlar taxmin qilib yozdiqlari hosillardan boshliq haqini shul chog'da olmaylar, yolg'uz taxmin qilib ketalar. Dehqon xirmanini ko'taradir, masalan, bug'doyni eltib, arzonliq chog'inda yuz tangadan sotadir. Vaqtlar o'tub bug'doy yuz elli(k) tangaga chiqq'andan keyin amlokdor boshliq haqini talab qiladir. Ul vaqt bechora dehqonlaridan yuz elli(k) tangadan pul oladir. Endi bir dehqonni ko'zimiz oldinda keturib shu ishlarni uning ustinda yuritaylik, ko'raylik nima bo'lar. Masalan, Tursun otli bir dehqonning to'rt tanobg'ina yeri bor, kecha uyqusizliqlari, kun ochliqlari orasinda yugurub, chopib, issiq-sovuq demay, qo'sh bog'lar, xirman sovurar, o'n botmong'ina bug'doyni xirman qilib hozirlab qo'yar, lekin bola-chaqalari ochliqdan o'lsa ham amlokdor bek kelmaguncha shuncha mehnat bilan hosil bo'lg'an bug'doyindan bir hovuch lolmas.

Olsa, bir hovuch yerinda bir botmon bug'doyni yigirma botmon taxmin qilarlar. Kafsan, ot yemi, mirzoyona[88] - nimalar debon bir botmoncha bug'doyni olib ketarlar. Bechora Tursun qolg'an to'qqiz botmon bug'doyni ko'taradir. Bozorga eltib, yuz tangadan to'qqiz yuz tangaga sotadir. Hafta, oylar o'tub bug'doy narxi 150 tangaga chiqq'ach, amlokdor bek haqlarini talab qilalar va Tursunboyni yigirma botmon bug'doyning uchdan biri bo'lg'an olti yarim botmon bug'doy uchun bozor narxi yuz elli(k) tangadan to'qquz yuz yetmish besh tanga olarlar. Mana bozorg'a bechora Tursun bir yillik mehnat qilib chiqardig'i bug'doydan yetmish besh tanga zarar tortib chiqadir.

Lekin ish shuncha bitdimi? Yo'q, yana bir buyuk mas'ata qoldi: Tursun-ku o'z bug'doyining pullarini necha oydan yeb bitirg'an edi. Amlokdorga bu to'qquz yuz yetmish besh tangani qaerdan topib berdi? Hindilardan, yahudiylardan yo hindi tabiat musulmonlardan foydaga ko'tarib beradir. Bizning dehqonlarimizning uyini kuydirgan qaydadir? (Muni keyinroqda arz qilaman.) Emdi ko'rayluk, qani, bu hukumat bilan shu amlokdor beklar kim, bechora dehqondan imkoni(cha) mehnat qilib, chiqardig'i hosilni butun olarlar, biror kun, biror yo'l bilan shu dehqonning biror ishiga ko'mak qilurmi? Albatta, yo'q. Hatto butun qo'limizdan tortib oldiqlari ekinlarning suyini ham keturub bermaydir. Shuning uchun ham dehqonning uyini kuydiradilar.

Yilda bir dafa arikdarni qazmoq kerakki, bu ishni buxorolilar "hashar" deyilar. Arikdan suv ichaturg'an butun dehqonlar yilning olti oyinda shul hashar uchun kunda bir mardikor (ishchi) bergulidir. Bera olmasalar bir mardikorning kundalik oqchasini hukumatg'a bergulari lozimdir. Muhorabadan[89] burun bir mardikorning kundaligi 10 tanga edi, ammo shu kunlarda qirqtanga (olti so'm). O'n tanob yeri bo'lg'an bechora bir dehqon har yilning olti oyinda yo bir mardikor tutib hasharg'a beradir va yo shu mardikorking olti oylig' oqchasini hukumatg'a beradir, boshqa chorasi yo'qdir. Bir mardikorning shu kunlarda olti oylig'i 7200 tangadir. Ammo ilgari 1800 tanga bo'la(r) ediki, bu ham bechoralarg'a oz oqcha emasdir.

Tuxumg'a[90], ho'kuzg'a, ot arobag'a pul bergan bechora dehqon har yil hashar uchun muncha oqchani qaerdan topib beradir? Oldig'i hosildanmi? Uni-ku amlokdor olib ketdi, bechora dehqon bu oqchani hindilardan foydag'a ko'tarib beradir. Bundan boshqa poytaxtning atrofindaki yerlarga suvni adolat yuzasindan bo'lib bermak uchun bir mirob (ya'ni suv begi) bor, bu odam suvni taqsim qilib bermak yerinda qo'nug'ini (navbatini) dehqonlarga sotib turadir. Suv begi janoblarig'a yilda bir necha dafa oqcha bermagan dehqonlar suv icholmaylar.

Zakola

Buxoro xonlig'inda ikki turli zakot bor: birinchisi mol zakoti. Shar'iy bo'yincha har musulmon o'z oqchasig'a yilda bir dafa zakot beradir. Lekin Buxoro savdogarlari o'z oqchalarig'a yilda besh-olti, hatto o'n dafa zakot beralar: masalan, bir savdogar Buxorodan yigirma ming tangalik mol olib, Qarshig'a eltib sotsa, bir zakot berar. Yana u yerdan shu oqchag'a mol olib Buxorog'a kelsa, bir zakot berar. Va yana Buxorodan shu oqchag'a mol olib Qarshig'a qaytsa, bir zakot berar. Shundayin o'n yo'la ketib, kelsa o'n yo'la zakot olarlar. Buning zarari yolg'uz savdogarning o'zinda bo'lsa so'z yo'q edi. Chunki savdogardir, boydir, ozg'ina ko'broq oqchasi ketsa ham zarar qilmaydir. Lekin u savdogar bu ortuq yerdagi zakotlarni mol ustig'a qo'yib sotadir. Demak, bundan ham qashshoqlar ham dehqonlar zarar tortalar.

Ikkinchi zakot - kachi zakotidir[91]; qo'y bilan kachidan olinadir. Qo'y bilan kachining zakoti haqiqatan qirqdan bir bo'lsa ham, sarrofona, kotibona[92] va, bilmasam, nimalar deb yigirmadan birga tushurib qo'yalar. Bunlardan boshqa chakana zakoti[93] deb nisobg'a erishmagan qo'ylardan shariatg'a maxoliqzakot olalar. Zakoti oling'an qo'ylar va kachilarning tanindaki yo'nindan[94] daxi zakot olmokdari ko'b buyuk masxaraliq emasmi?

Zakotda zulmlarning kattarog'i shulkim: qo'y va kachi zakotini daftar yuzindan olarlar. Masalan, o'tgan yili manim qirq qo'yim bor edi. Kelib daftarda yozib zakotini olib ketdilar. So'ngra manim qo'ylarim o'ldi yoinki sotib bitirdim. Bu yil birta ham qo'yim yo'kdir. Lekin zakotchi bek kelgach, daftarni ochib ko'rular, kim, manim otimda qirq qo'y yozilg'an; ishi bitdi, mendan bir zakot olib ketalar. Qo'yim yo'qdesam oning daftarida bor deyarlar "bor edi, lekin sotib bitirdim" desam tinglamaylar. "Yo'q, bermayman" desam urib, osib ola(r)lar[95].

("Hurriyat", 1918 yil, 69-72, 75-sonlar)

Angliz va Turkiston

Mundan ikki oy burun "Turkistonda angliz mudofaasini saqtamoq uchun Chin qo'shuni kelmoqchi emish" degan bir xabar chiqq'anda "Hurriyat" gazetasi ikki maqola ila fikrini bildirgan[96] va Turkiston siyosiyalarini uyg'oqliqqa chaqirg'an edi. Bu kun ish bir oz ochildi: Turkistong'a angliz vakillarimi, angliz josuslarimi kela boshladilar.

Bu vakillardan Kogonda Sapar Badlo'f[97]ning uyiga qo'ng'an bir hindli Parnasning rus rasmiy doiralarda berdig'i ma'lumotga qarag'anda bir odam hind inqilobchilaridan emish. Hindustonda inqilob chiqarmoq uchun bolsheviklar bilan muzokara qilg'ali kelgan emish. Sharqning eski hukumatlaridan birisi aydig'i uchun ruxsat berilsa, bechora hukumatini ko'rmoqchi emish. Bunlarning yuqori doiralarg'a ham so'zlari shu esa biz bunlarga "yashurun bir maqsad uchun kelgan josuslar" deb qararg'a majbur qolurmiz. Yuqori doiralarga tilaklarini ochibg'ina aytgan bo'lsalar, u vaqt bunlarning bolsheviklar bilan muzokara qilg'ali kelgan vakillari ayduqlarig'a shubha qolmas. Har holda mas'alaning shu nuqtasi ma'lumdirkim bunlar josus bo'lsalar ham vakil bo'lsalar ham tilaklari birdir. Bunlarning ikkinchisi bir Hindustonni olmoqchi bo'lg'anlar. Bunlarning ko'zlari bizning yurtimizdadir. Anglizlar bilan Turkiston orasinda Afg'on va Chin hukumatlari bordir. Ajabo Britaniya tulkilari Turkistonimizg'a burunlarini suqmoqchun Chin hukumati bilanmi onglashadilar. Afg'on hukumati bilanmi?

Og'iz xabarlarig'a qarag'anda, har ikkisi bilan ham onglashg'an, hatto Afg'on hukumati bilan ittifoqi kuchliroqg'a o'xshaydirlar. Lekin biz shul Afg'on va Angliz ittifoqini qabul qilmaymiz.

Ma'lumdurkim: bu kun German va Turk davlatlarining birinchi dushmanlari anglizdir. German va turk davlatlari oldida

Turkistonning anglizlarga kechmakindan ruslarga qolmog'i yaxshiroqdir. Bir vaqtlar o'zini turk davlatining bir kashishi[98] atagan Afg'on hukumati turk siyosatiga shuncha molik bo'lg'an bir mas'alani qabul qilarmi? Angliz bilan ittifoq etmak - german va turkga qarshi chiqmoqdir. Afg'on hukumati bu yo'lga kirarmi? Angliz hiylasining ta'siri buyukdir, ehtimol kim, Afg'on hukumati ham oldang'andur, lekin bizning umidimiz boshqadir. Afg'on hukumatining urushga qotishmog'i mumkindir, uning kuchi bordir, ehtimolkim, vaqti daxi bo'ladir, lekin biz umid qilamizkim, Afg'on hukumatining bu harakati angliz foydasi uchun emas, german va turk pilonlariga muvofiq bo'lmoq sharti bilan o'z foydasi uchun bu harakat Hindustong'a qarshi bo'lg'ulidir. Ammo Angliz va Chin ittifoqi mumkindir. Chin hukumati Japun tazyiqotindan qutulmoq va o'lkasining rus nufuzi ostida qolg'an qismida o'z huquqini tasdiq eturmak uchun Angliz davlatining turli xizmatlariga hozirdir. Emdi mas'alaning boshqa bir jihati qoldi. Turkistonni daxi Hinduston kabi yutmoqchi bo'lg'an anglizlar bu urush maydonidan qanday chiqarlar? Mag'lubmi? Mag'lub chiqarlar esa, Turkistonni qaysi kuch bilan saqlarlar? O'z hiylalariga ishong'an chidamli anglizlar o'zlarini shul muhoribadan oz zarar bilan soqg'ina qutqarmoq uchun albatta bir pilon chizg'an va shul pilonlariga ishong'andirlar. Mana shul nuqtag'a binoan, sulhdan burun Turkistonni olib dushmanlarini "amru afu"[99] qarshisida qo'ymoq va sulh majlisida kirganda Turkistonni qaytarib berarg'a majbur bo'lsalar ham uning o'rinda boshqa yoqdan biror narsa saqlamoq fikrinda bo'lsalar kerak. Ammo bizning fikrimizga ko'ra, angliz hukumatining bu urushdan oz zarar bilan soqg'ina qutulmog'i mumkin emasdir. Germaniyaning og'ir va yomonroq zarbasi anglizlarning boshlariga inar[100]. Angliz hukumati butun ishdan chiqmayin bu urushdan chiqolmas. Shul suratda Turkistonning tole'i[101] nimadir? Uni turkistonlilarning o'zlari tayin qilarlar, ammo ittifoq va ittihad aytib butun fikrlarini bir nuqtada to'plag'andan keyin!..

("Hurriyat", 1918 yil, 29 mart, 82-son)

Turkistonda ruslar

Islom madaniyati tarixining oltunli, yulduzli yaprog'laridan buyuk bir qismi, shubha yo'qdirkim turklar to'g'risida yozilg'andir. Yunondan Rumog'a[102], Ubadan Konstantaniyaga[103] ko'chib kelgandan keyin ta'sir etib, taassublari tarafidan qo'l-oyog'i bog'lanib qolg'an madaniyati bilan ulum va funun Bag'dod saltanatining egalari bo'lg'an abbosiylar tarafidan[104] turgizildi va tarbiyot ko'rdi.

Ul chog'larda yer yuzini baxtli muhabbat kabilari qoplag'an abbosiylar saltanati yolg'izg'ina siyosat negizi emas, ulum va funun tengizi ham edi.

Abbosiy saltanati nifoq, nizo', axloqsizlik, g'urur, isrof va zulm kabi ko'b ijtimoiy kasallarga tutulib o'lg'andan keyin uning merosini yana islom siyosati bilan islom madaniyatini o'z qo'llariga olib turklar saqladilar. Abbosiylardan so'ng ulug'roq islom saltanatlarini turklar qurdilar. Abbosiylar qo'lidan chiqib yana egasiz qola boshlag'an madaniyatni turklar asradilar.

"Bizning Turkistonimiz esa mana shu buyuk turk ulusining beshigi bo'lmog'i bilan iftixor qiladi..." Yolg'iz shumi?.. Abbosiylardan so'ng islom saltanatiga qorovuyaliq qilg'an turk xoqonlarining oxiri va ulug'larida bo'lg'an Temur yanglig' turk qahramonini Turkiston yetishtirdi. Yana abbosiylardan keyin "madaniyati bashariya"ni boshlari uzra ko'targan turk olimlarining kattakonlari bo'lg'an Abu Ali[105], Ulug'bek, Javhariy[106] va Forobiy kabi hikmat tiraklarini Turkiston chiqardi.

Aflotunlar chog'inda Afina, Rumo saltanatida Rumo, abbosiylar xulofotinda Bag'dod qancha taraqqiy qilg'an bo'lsa Temur va Ulug'beklar zamonida Samarqand shuncha taraqqiy qilg'an edi.

Bir kishining miyasig'a chog'irning qanday ta'siri bor esa, bir millatning miyasig'a daxi saltanat va madaniyat ichgusining shundayin ta'siri bordir. Saltanat, boyliq va madaniyat ichgulari bizning miyamizni buzdi, bizni mast etdi, qo'limizdag'i saltanat qilichi bilan madaniyat daftarini bir yong'a qo'yib safoat cholg'ularini oldiq. Urdik, choldik, ichdik, yiqildik, yondik va shunlar uchun bir-birimiz bilan urushdik...

Mana shul chog'larda edikim: Rusiya davlati bizning o'lklarimizni kelib bosdi. Ortuq biz Turkiston turklari Ovro'pa madaniyati tashiguchi bo'lg'an rus millatiga yo'liqg'an bo'ldik. Madaniy ruslar bilan qorishib unarning dalolati Ovro'paning madaniy va ijtimoiy usullaridan ta'sir olmog'imiz kerak edi.

Shuni ham aytib o'taylukkim munday bir ta'sirni rus millatining avom tabaqasidan olmog'i(mi)z mumkin emas edi, chunki bizning avomimiz unlardan yuz marotaba madaniyroq edilar (hozir ham shunday). Ruslarning o'qug'an, tarbiyali kimsalaridan sosializm va qardoshliq maslakida yurg'anlar ham imperatorlik hukumati tarafidan quvilib, qisilib turg'anlari uchun bizga biror ta'sir qo'yolmas edilar.

Qoldi: rus millatchilari, rus boylari va rus po'plari bilan shunlarning qorovuli bo'lg'an imperator hukumati. Biz turkistonlilar yolg'iz shunlarning qo'linda qoldiq. Ne ko'rgan bo'lsak shunlardan ko'rdik.

Endi ko'raylik qani: shunlar bizning taraqqiyimiz va Ovro'pa madaniyatidan ta'sir olmog'imiz yo'linda biror ish qildilar yoxud qilmoqchi bo'ldilarmi?!

Rus kapitalistlari bilan rus po'plarining sodiq va ishonchli qorovullari bo'lg'an eski Rusiya huqushti elli(k) yil orasida, Turkistondag'i turk bolalarining foydalariga biror ish ko'rdimi, ko'rmoqchi bo'ldimi?

Mana shul savolga, Maltaassuf[107], "yo'q!" dan boshqa bir javobimiz yo'qdir. Yurtimiz: elli(k) yillik bir idorayi askariya ostida turdig'i uchun biz Ovrupaning madaniy millatlari bilan ko'risholmadik, unarning ijtimoiy va iqtisodiy fikrlaridan istifoda qilolmadiq. Bizning ko'zlarimizni ochdurmaslik uchun fikri ochiq totor qarindoshlarimizning daxi Turkistonda maktab ochmoqlari man' etildi.

Bizning diniy va milliy hissiyotlarimizni o'ldurmak tilagi bilan O'straumov kabi mutaassib po'plarning idorasinda gazit[108] chiqarildi, maktab ochildi, lekin o'z millatimiz va diyonatimizni onglatmoq uchun o'z tarafimizdan ochilg'an maktablar va gazitlar bog'landi, shar'iy mahkamalarimizning huquq va salohiyatlaridan buyuk bir qismi g'asb etildi.

Mahkamalarda, uylarda, yo'llarda, tijoriy ishlarda, hatto vagon arbarlarida Turkiston yerlisining huquqi Turkiston musofiri bo'lg'an rus va armanidan tubanda tutildi.

Buxoro va Xiva hukumatlarining doxili istiklollariga, milliy nomuslariga turli bahonalar bilan tajovuzlar qilindi. Bu ikki hukumat o'z o'lklarinda o'z hukmlarini yurutolmas bo'ldilar. Mamlakat va millat qoidalariga bu ikki hukumat tarafidan sira biror harakat sodir bo'lmadi, sodir bo'lg'anda ham necha qizg'in no'talari va zolimona tahqir bilan yo'llari olindi.

Elli(k) yilda(n) beri shundayin haqsizliqlar va zulmlar orasida bo'g'ulib kelgan Turkiston bukun o'z muxtoriyatini Ho'qandda[109] e'lon qildi. Ho'qandda ijtimoi' etgan[110] Turkistonning to'rtinchi qurultoyi o'z bayonnomasinda "Fedaratsa asosiga qurulg'an

Rusiya jumhuriyati ila birlikda qolg'ani holda Turkiston muxtoriyati" degan so'zni yozib, Rus hukumatig'a sodiq qoldig'ini bildurdi.

Shuning ila barobar "Turkistonda aqliyat tashkil qilg'an millatlarning huquqtarining har jihatdan saqlanmog'ini ham tantanali suratda" e'lon etilib, adolat bayrog'ini ko'tardi.

Elli(k) yildan beri shuncha zulm orasinda qolg'an Turkiston bu kun o'z muxtoriyatini shuncha adolat va sadoqat bilan e'lon qilibdir. Bilmadik nechundurkim, hozirda ish boshinda adolatchi bolsheviklar muni qabul qilmay turalar..!

("Hurriyat", 1918 yil, 63-64-sonlar)

Qayta nashri: "Sharq yulduzi", 1992, 4-son, 183-184-betlar. Nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi H. Boltaboev.

Buxoroning holi

Buxoro hukumati va Buxoro amirining uch yuzi bukun o'rtag'a chiqqan, "maf'iu-l-zamiri[111]" ma'lum bo'lg'aydir.

Rusiya inqilobi. Imperatorning taxtdan tushgani, rus hukumatining xalq qo'lig'a qo'chdigi Buxoro hukumatig'a inqilobning haqiqati va inqilobchilarning tilaklarini bildurdi. Inqilobchilarning himoyasig'a sig'ing'an yoshlardan Buxoro hukumati biroq qo'rqdi. Ko'b o'ylovlar, tushunchalar va qarorsizliklardan so'ng belguli bir qarorg'a keldi. O'zi uchun ikki yo'l tayin etdi: vijdon va imonlarini sotaturg'an "oqcha quli" afandilarni sotib olmoq va oltun tuzoqg'a tushmas yoxud oltung'a qaramaslarini turli bahonalar bilan u dunyog'a yubormak!

Bundan birinchi yo'lni amirning o'zi qabul qilib, ikkinchisini qushbegisiga[112] havola etdi.

Amir janoblari yuborg'an "ehson"ning qobug'ini ochib yaramas, arzimans kimsalarga mehroxo'rlik[113], to'xsobaliq[114] rutbalarini bag'ishlamoq, hatto fohisha xotunlarig'a madrasa mutavalliliklarini bermak yo'li bilan o'ziga tarafdor to'plab turubdir. Qushbegisi esa, angiz isiyun[115] mazmunini esga keltirur yo'llar bilan yoziqsiz, gunohsiz kimsalarni mahv qilmoq ila mashg'ul! Hukumatdan bo'limg'an va ko'nglidagini tilinda olg'an mazlumlarni o'g'rilik tuhmatila tutdirib, qinab[116] iqror qildirmoq bahonasi bilan yalang'och qorinlarig'a yuz-ikki yuz tayoq urg'andan keyin tarbuz suyi ichiradir. Bechoralar tarbuz suyini ichkandan so'ng shishib o'larlar!.. So'ng bir oy muddatda shu surat bilan o'lganlarning soni yuz ellikdan ortmishdir.

Yaqinlarda yana qushbegining piloni[117] bilan bo'g'dirilg'an ikki yosh buxoriyning shahodatlarini gazitga yozg'an edik[118], bu kun oldigimiz xabarg'a ko'ra, Buxoro amiri amlokiga, ikkinchisining aklig'a buyuk bir muosiylar[119] beribdir. Ya'ni bu jinoyatning o'z ishi va huquqini harakati bilan isbot qilibdur. Mana shu so'ng hodisalar, zulmlar va insofsizliklar Buxoro hukumatining "ma'f'iu-l-za-miri"ni onglatadir. Ortiq Buxoro islohoti yo'linda chin ko'ngil va o'z tilagi bilan bayonnoma chiqarg'an bir "jinoyali"[120] va u bayonnomani yurutmoq uchun tayin bo'lg'an bir "vazurotpanohi"[121] yo'qdir. Bunlar yolg'on va bo'sh so'zlardir. Bunlar zulm qullari bilan qurulg'an tuzoqlardir. Bunlarga ishonmoq o'zimizni aldamoqdir.

Endi Buxoro yoshlari uchun lozimdirkim "bayonnoma - hamma bunga ko'mak etmak"[122] shiorini miyalaridan chiqarg'aylar. Buxoro inqilobini istar esalar, inqilobchilarg'a yarashur harakatlar qilg'aylar. Yaxshi so'zlar bilan, tavozelar bilan, yolborishlar bilan Buxoro hukumatini yo'lga keturmak bo'lmas. Zolimning "... tabiatiga o'xshash bir tabiati bordir: qochg'anga quvar, quvg'anga qochar. Zolimlarning shu tabiatlarini, shu "ahvoli ruhiya"larini ko'zda tutmayin harakat qilaturg'anlar(ning) xato yo'ldadirlar, zarar ko'rarlilar. Qo'rqmayin, tortinmayin keskinroq harakat qilmoq kerak bu kun: Rusiya xarobalaridan chiqq'an Qafqos, Turkman, Totor, Turkistonning muxtor hukumatlari Buxoro yoshlig'iga[123] har jihatdan ko'mak qilarlar. Adolat, hurriyat va mashvarat bilan idora bo'laturg'an bu muxtoriyatli islom o'lkalari yoninda Buxorodag'i zulm himoyaning yiqiluri muqarrardir. Muncha adolat va haqqoniyat quyoshlari bilan yorug'an, oydinlashg'an bir qit'aning o'ta soxta, insofsizliq qorong'usi turolmas, yo'qolur.

("Hurriyat", 1918 yil, 62-son)

Muxtoriyat

Turkiston muxtoriyati... Temur xoqonining chin bolalari yoninda, turkistonning tubchak turklari orasinda, mundan o'g'urli[124], mundan muqaddas, mundan suyunchli bir so'zni borlig'iga ishonmayman.

Turkiston turkining qonini qaynatg'uchi, imonini yuksaltg'uchi bir quvvat bor esa, yolg'uz shu so'zda bordir: Turkiston muxtoriyati. Elli(k) yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo'limiz bog'landi, tilimiz kesildi, og'zimiz qoplendi, yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yumurldi, nomusimiz g'asb qiyaindi, huquqimizg'a tajovuzlar bo'ldi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi, to'zimli turdik, sabr etdik.

Kuchga tayangan har buyrug'ga bo'yinsundik, butun borlig'imizni qo'ldan berdik. Yolg'iz bir fikrni bermadik, yashrun turdik, emgaklarimizg'a o'rab saqladik: Turkiston muxtoriyati!

Mahkama eshiklaridan yig'lab qaytg'anda, yoruqsiz turmalarda yotg'anda, yirtg'uchi jandarmning tepgusi bilan yiqilg'anda, yurtlarimiz yondurulg'anda, dindoshlarimiz osilg'anda ongimiz yo'qoldi, miyamiz buzildi, ko'zimiz yog'dusiz qoldi, biror narsani ko'rolmadik. Shul chog'da, tushkun ruhimizni ko'tarmak uchun shul qop-qorong'u dunyoning uzoq bir yerinda oydin bir yulduz yalqillab tura(r) edi. Biror narsaga o'tmagan ko'zimiz shuni ko'rar edi. Ul nima edi? Turkiston muxtoriyati!

Biz aniq bila(r) edikkim, zolim Nikolay hukumati qancha yasharsa yashasun, adolat oshiqi bo'lg'an... rus demokratiyasi, haqq'a tayangan bir inqilob, har millatning o'z haqlarini qaytarur.

Inqilob bo'ldi. Rusiyaning "qo'shma xalq jumhuriyati" usuli bilan[125] idora etiluri jarlandi. Shul e'lon uzra yasalgan Ukraina, tatar va boshqa millatlar muxtoriyatlari tasdiq etildi. Qo'nuq[126] Turkistonniki edi. Turkistonning tarixiy xonbaliqlaridan ikkinchisi bo'lg'an Xo'qand shahrinda to'plang'an Turkiston qurultoyi 27 no'yabrning "milliy laylaturqadrimiz bo'lg'an" yarim kechasinda Turkiston muxtoriyatini e'lon qildi.

Lekin shunisi borkim, bir millatning muxtoriyati yolg'uz bir s'ezdning e'loni bilan tamom bo'lmas. Muxtoriyatni olmoq va saqlamoq kerakdir. S'ezd o'z ishini qildi. Qolg'anlari butun millatning vazifasidir. Muxtoriyatni saqlamoq uchun kuch lozim. Muxtoriyatni bajarmoq uchun aqcha keraqdir. Bularni millat hozir qilsun.

("Hurriyat", 1917 yil, 5 dekabr).

Maqola "Fan va turmush"ning 1990 yil, 10-sonida (30-31-betlar) qayta nashr qilingan nashrga tayyorlovchi Sh. Turdiev.

Siyosiy hollar

Musibat ustina musibat! Rusiyaning hozirgi holini ochiq tasvir etmak uchun mundan yarasharoq[127] so'z yo'qdir.

O'zgarishdan[128] so'ng Rusiyaning har tarafidan ochliqlar, yong'inlar, talonlar, o'lumlar, o'ldurmalar bo'lub turg'an chog'da birda

chiqib qolg'an g'olibiya mag'lublig'i bilan buning ustiga tortilmas bir yuk bo'lub cho'kgan Rig'o[129] ketishini ko'zda olsak va bunlar orqasidan bosib kelgan Boltiq mag'lubligini o'ylasak, Rusiyani musibat ustinda musibat bosayotibdir. Rusiya amrinda emdigi tuyoklarin ostinda yotibdir deyarg'a bizni majbur qilur. Voqea Rig'o kabi chidamli bir qo'rg'onning uch kunda ketmasi Boltiqdagi kimsalarning chopibg'ina anglamasi, yolg'uz ishtahalarni emas, o'z istiqbollaridan ruslarning o'zlarini dahi ma'yus qilur, rus kuchindagi e'timod[130] va e'tiborlarni tubindan churutur hodisalardan edi. Ortiq ruslarning oxirlari qolg'an bo'lsa, butun-butun muttafiqlariga[131] qolg'an edi. Ruslar "ehtimolki, muttafiqlarimiz o'z maydonlarina orqasi aysimas[132] yurushlar qilib, bizni o'zigagina undururlar" deb o'ylay edilar.

Rus siyosiyolari shunday bir umid bilan urunib turmoqda ekan, birdan Italiya qo'shuni buzuldi. Olmonlar Italiya uzra temur yumruqlarini undirdilar[133] va Italiya qo'shuni o'z boshini olib, Olp tog'lari orqasiga chiqorg'a majbur bo'ladi. Olmonlar, yo'llari uzra Italiya qo'shunidan ming bo'yla kuchliroq bir mone'[134] bo'lg'an Olp tog'larin oshib, Italiya sahrolariga indilar. Ortiq Italiya o'lkasining har yoniga olmon qo'shuni uchun yo'llar ochildi...

Italiyaning bu qo'rqunch mag'lublig'i yolg'iz italyonlar uchun emas, ruslar uchun daxi buyuk bir musibat bo'ldi. Chunki yong'inlarinda, badbaxtlik loyqalarinda botib qolg'an Italiyaning qo'lindan ololmag'an muttafiqlar qo'shunidan Rusiya uchun ko'mak ko'zlayikning ma'nosiz bir edugini yangidan isbot qilib berdi. Buning natijasinda Rusiyada yangi bir balo bosh ko'tardi, bolshevik balosi!

Bolsheviklar ikkinchi yo'la qo'zg'aldilar. Bu qo'zg'alishlari birinchisi kabi bo'lmadi. Bu daf'a buyuk ish qurdilar. Petrogradni olib, Kerenskiyni Rusiyaning sodiq bolalarini oxtarib topib, to'plab keturmak uchun maydonlarig'acha ketarg'a majbur etdilar. So'ng xabarlariga ko'ra, Kerenskiy tevarakdan to'plab keturdigi qo'shun bilan bolsheviklarni yengmish va Petrogradni unlarining qo'lindan yangidan olmishdir.

Olmish, ammo bolshevik balosi boshqa bir tarafdin bosh ko'tardi: Toshkandda to'rt kunlik qonli bir urushmadan so'ng, u yerni kerenskiychilardan bo'shatdi. Ehtimolki, Kerenskiyning Petrogradagi g'oliblig'i Toshkand mag'lublig'ini e'tibordai tushurar; ehtimolki, Kerenskiy Petrograd ishini tuzatgandan keyin Toshkandni daxi yanadan olur. Lekin shunlargini bilan bolshevik kuchining yo'q bo'lurini umid etmak to'g'ri emas. Bolsheviklarning ikkinchi chiqishlari bilan birinchi chiqishlari orasidagi ayiribodni ko'rgan kimsalar uchinni bir chiqishning qanday bo'lurini onglab olsalar kerak.

Biz turkistoniylar uchun har holda kerenskiychilar bilan bolsheviklar orasindagi kurashning bitib ketmadigini ko'zda tutib, o'z yo'llarimizni shunga ko'ra tayin etmak kerakdir. Bilamizki, hozirda kurashib turgan bu oygi firqaning har biri hurriyatchidir. Ikkisining ham bizga zararli tushunchalari oxirda yo'qdir. Zero, bunlardan birontasi istibdod tarafdori emasdir. Telbalik qilib chopibg'ina bunlardan birini yoqlamoq foydali bo'lib chiqmas. Rusiyada istibdod tarafdorlari chiqmaguncha musulmon kuchini sarf etmak xatodir. Hurriyatchi ikki partiya orasinda bo'laturg'an urushlarga qotishmoq, bunlardan birini yoqlab o'zgasidan yuz qaytarmoq ehtiyotsizliqdir. Bunlarning ham bizning so'zimiz shu bo'lg'ulidirki: biz musulmonlar sizning hech biringizdan nafrat qilmaymiz. Bizning milliy vataniy haqlarimizni g'asb etmak fikriga tushmaguncha biz hech biringizga dushman bo'lmaymiz. Mana hozirda turkistoniylar uchun xatarsiz yo'l shu yo'ldir.

("Hurriyat", 1917 yil, 49-son)

Buxoro ulamosi

Buxoro ulamosini, asosan, ikki firqaga taqsim etish mumkindir. Biri Buxoro va uning tevarakindan to'planib tahsil qilaturg'an buxoriylar, ikkinchisi Buxoro xonlig'ining Sharq tarafindagi Ko'lob degan tog'liq yerdan kelgan ko'lobilar. Tarixi islomdakisi bani Hoshim[135] bani Umaviya[136] o'rtasida bo'lg'ani kabi Buxoro ulamosi va ko'lobilar orasinda eski bir dashtlik[137] bordir. Bu dushmanlikning bosh sababi hozirgi Buxoro qozikaloni bo'lg'an Burhoniddinning bobosi qozi Sadriddin Mulla To'xmaq o'g'li[138] degan zotdir.

Qozi Sadriddin(dan) burun bo'lg'an Buxoro mullalarining barchasiga bir ko'z qarab har birig'a mustahiq[139] buydigi ilmiy mansablarni bera(r) ekanlar, Mazkur Mulla Sadriddin Mulla To'xmaq o'g'li Buxoroda qozikalon o'lg'ach, ishi tezlashib ketgan. Bu odam avval Buxoroning vaqflariga va boshqa ishlariga buyuk xiyonatlar qilgan: xalq ustiga "aminona"[140] degan bir solug'ki yolg'ondan shar'iy deb yuklag'an, ko'b vaqt yerlarini, vaqf oqchalarini hukumat xazinasiga og'darg'an, shu yo'llar bilan amirni(ng) o'ziga tobe' qilib olg'andan keyin Buxoroning yog'li mansablari (ki) o'z ko'lobilariga olib bergan.

Bu odam diniy ilmlardan (Qur'on va Hadisdan) butun xabarsiz bir odam ekan. Bir kun buyuk bir ilmiy majlisda Qur'onni ochib sahifa boshindagi suradan ibtidosi bo'lg'an "hamasi"[141] jumlayi sharifini "ham ishq" o'qudigi Buxoro ulamosi orasinda mashhurdir. Uning bu hollari buxoroli ulamoning nafratlariga sabab bo'ldi. Qozi Sadriddin necha yil keyin o'g'li Badriddin qozikalon bo'ldi. Bu odam daxi otasining yo'li bilan yura boshladi. O'zi ilmsiz bir kishi edugi uchun ma'lumotli ulamodan qo'rqar va unarni ish boshindan tushura edi.

O'z ko'lobilari orasindan johillarini saylab Buxoroning buyuk ilmiy mansablarini shunlarga bera edi.

"Buxoroli ulamo" ilmiy mansablardan mahrum bo'ldilar. Buxoroning tubchaklari[142] bosh ko'tara olmay qoldilar. Badriddinning bu ishlaridan g'ayratli necha ulamolalar hayajonga keldilar va unga qarshu bir varaqa chiqardilar. Bu varaqaning boshinda g'ayratli ulamolardan samarqandli marhum Mufti Burhoniddin tura edilar. Qozi Badriddin yolg'on xabarlar chiqorib, mufti Burhoniddinni Buxoro amirining doimiy g'azabiga uchratdi. Mufti Burhoniddin shu ilm bilan dunyodan o'tdi.

Bu zot o'rnig'a firqa boshinda ustodim marhum Oxund Mulla G'iyosiddin hazratlari o'tdilar. Marhum ustodim diniy va shar'iy ilmlardan boshqa ilmi kalom va eski yunon falsafasindin tamoman voqif bir zot bo'lub, so'zga ham ko'b usta edilar. Shuning uchun qozi Badriddinni bosh ko'tararga qo'ymas edilar. Ko'b vaqtlar qozi Badriddinning og'usi bilan amirning g'azabiga uchrasalar ham parvo qilmasdan o'z niqoblariga davom etib, dunyodan o'tdilar.

Bu zotning o'runlariga qozi Badriddinga qarshu bo'lg'an firqaning boshig'a uch zot keldilar, bunlar marhum shayxulislom Baqoxo'ja hazratlari, marhum ustodimning ukalari Masnaf va Buxoroning olim qozikaloni bo'lg'an qozi Abdushukurning o'g'illari Sharifxon maxdum edilar[143].

("Hurriyat", 1917 yil, 48-son)

"Sho'royi islomiya"ning xatosi

Maqolamizning shu unvoni, o'quvchilarimizning hayrat va taajjublariga sabab bo'lsa kerak. Uzimizdag'i shul maqolani buyuk bir hayrat va taajjub ichinda yozib turibmiz. Masala shu:

"Sho'royi islom" jamiyatining[144] saylov to'g'risinda "uy egalari"[145] o'tli bir rus partiyasi bilan ittifoq qilg'anini barchamiz bilib

oldik endi, Mashhur so'zlarg'a qarag'anda, shul ittifoq ikki musulmon, bir rus tartibi o'zaro bog'langan. Muning ma'nosi shuki, "Sho'royi islom" o'z ro'yxatig'a elli(q) musulmon va yigirma besh rusni, ikki musulmon bir rus qilib yozadir. Saylov kuni "Sho'royi islom" tarafdorlari bo'lg'an musulmonlar bilan "uy egalari" tarafdorlari bo'lg'an ruslar shul sho'roning ro'yxatig'a tavush berurlar va natijada masala 15 galos[146] olinsa, 5 tasini ruslarga berib, 10 tasini musulmonlar olurlar.

Tunov kuni mutafakkir bir do'stim bilan shul to'g'rilarda gapurib o'tirg'an edim. Do'stim haqli bir suratda "Sho'royi islom"ning shul ittifoqini tanqid qildi, dedikim:

Samarqand saylovig'a qushilaturg'anlar; musulmondan (xotunlar hisob emas) o'nolti ming, juhud ikki ming besh yuz, rus o'n bir ming besh yuz, hammasi o'ttiz ming kishi bo'lur. Shul o'ttiz ming kishini yetmish besh galosiga taqsim qilsak, har to'rt yuz kishiga bir galosi tushar. Emdi shunisi ham ma'lumdirki, saylovga qo'shilaturg'an o'n bir ming besh yuz rusning hammasi "uy egalari" partiyasiga dohil emaslar. Chunki ruslar orasinda "uy egalari" partiyasidan boshqa to'rt-besh partiya bordur. "Uy egalari" partiyasi g'ayrat qilsa, o'n bir ming besh yuz rusdan ikki mingini o'z tarafiga ola bilur.

Faraz qilaylikki: sho'ro jamiyati shul saylovda o'z tarafiga, o'z ro'yxati uchun ikki ming musulmon tovushi ola bilsun. "Uy egalari" partiyasining o'ttiz besh galosi tushar. Endi ittifoq yuzindan sho'ro jamiyatining o'zi shul o'ttiz besh galosdan o'n ikki ming musulmon tovushi olur 24 galosni; "uy egalari" partiyasiga ikki ming rus tovushi uchun berur o'n bir galosni!

Holbuki, ayri-ayri spiska bo'lg'anda "Sho'royi islom" o'n ikki ming musulmon tovushi uchun 30 galosni va "uy egalari" partiyasi ikki ming rus tovushi uchun besh galosni olur edi. Mana shul hisob yuzindan Sho'ro jamiyatining shul qilg'an ittifoqi musulmon haqiq'a zararlidir, chunki olti musulmon galosining yeri ruslarga o'tgan bo'lur.

Do'stimning bu hisoblarini eshitgach, hayratda qoldim. "Ajabo, Sho'ro jamiyati nechun shuni tushunmaydi?" dedim va chiqib keldim. Sho'ro shu masalani tushunmag'an bo'lsa, millatning o'zi tushunsin va ortuq qaysi no'mir ro'yxatg'a tovush bermak kerak edigini tayin etsun.

("Hurriyat", 1917 yil, 5 sentyabr, 36-son)

Qayta nashri: "Yoshlik", 1991, 10-son, 45-bet (N. Avazov nashrga tayyorlagan). Saylovlarda ishtirok etayotgan har bir firqa qatori "Sho'royi islomiya" tashkiloti va uning rus "uy egalari" firqasi bilan hamkorligi tanqid etilgan.

Musulmonlar, g'ofil qolmang!

Yaqinda shahar dumasig'a[147] ochilur. Shahar dumasig'a, shaharimizning pokizalig' va obodlig'i, maktablarimizning taraqqiy va intizomi, bolalarimizning tarbiyasi va xalqimizning tinchligi uchun kerak bo'lg'an ishlarni o'z qo'liga olur. Shahrimizdan xazinaga kiraturgan oqchalarni shu yo'llarda sarf qilmoqchi bo'lur.

Bu oldimizdagi shahar dumasig'a eski hukumat zamonidagi shahar dumalarig'a o'xshamas. Yigirmadan o'tgan butun shahar odamlarining ixtiyorlari bilan saylanurlar. Bu shahar dumasig'a juhuddan, rusdan, musulmondan vakil qilib o'turur[148]. Va shahar ishlari uchun gapurushurlar. Shaharning qaysi qit'asig'a kasalxonalar qurmoq kerak, shaharning qaysi qit'asig'a yo'llarni tuzatmoq kerak, shaharning qaysi qit'asig'a qancha maktab solmoq kerak deb kengashurlar va shul to'g'rilardag'i ishlarni "vakillar ko'pchiligig'a" ning qarori bilan qilmoqchi bo'lurlar. Vakillar ko'pchiligig'a hammadan burunroq eski qit'aning yerlarini tuzatmoq kerak, chora yo'q, shu qilinur. Vakillar ko'pchiligig'a ko'broq kasalxonalarni yangi qit'ada solmoqchi bo'lsa, iloji yo'q, shu bo'lur. Mana shularni onglagan har jamoat, har millat shahar dumasig'a o'zidan ko'broq vakil o'tkazmoq uchun tirishadir, dumaning ko'pchiligig'a o'ziga olmoqchi bo'lur. O'tgan haftadag'i "tahriri nufus"dan[149] ong'lashildiki: shahrimizda xalqning to'rtidan uchi musulmon va to'rtidan biri rus, armani va juhud ekanlar. Shunga qarag'anda unlar xazinadan chiqim bo'laturg'an oqchani uch shunchasi biz uchun chiqg'uchidir. Unlarga maktab ochilsa bizga uchta; unlariga bir kasalxona ochilsa bizga uchta ochg'uli; unlariga bir put bug'doy kerak bo'lsa bizga uch put kerakdir.

Qisqasi shulkim: bizning haqimiz ularning haqtarindan uch yo'la berkdir. Mana shularni tilab olmoq uchun shahar dumasig'a ko'pchiligig'a olmoq kerak, shahar dumasig'a ko'pchiligig'a olmoq uchun musulmonlarning saylov kuni lozimdur. Yo'q, saylov kuni har kim o'z uyig'a o'tirsa; boshqalar ko'pchilik bo'lib kelsalar va dumaning ko'pchiligig'a o'z taraflarig'a o'tkarsalar; u vaqt biz hech bir haqimizg'a erisholmasmiz, yana eski kabi huquqsiz bo'lib qolurmiz; yana eskisi kabi o'z shahrimizda o'z oqchamizning rohatini o'zimiz ko'rolmasmiz.

Shuning uchun bag'iribroq aytamankim, o'z xalqlarini yana boshqalarning oyoqlari ostig'a qo'ymoqchi bo'lmag'an musulmonlar! Saylov kuni g'ofil qolmanglar, ko'pchilik bo'lib kelurg'a tirishinglar.

("Hurriyat", 1917 yil, 25 avgust, 33-son)

Qayta nashri: "Yoshlik", 1991, 10-son, 44-45-betlar (N. Avazov nashrga tayyorlagan). Maqola Samarqand shahri dumasig'a saylovlar oldidan yozilgan.

Izohlar

Б† "Jalil Boybo'latovga ochiq xat" shaklida yozilgan ushbu maqola 1919 yil "Qizil O'zbekiston" gazetasining 15-16 sentyabr (215-216) sonlarida e'lon qilingan bo'lib, J. Boybo'latov qator chiqishlarida Fitratni "panturkizm" va "panislomizm"da ayblaydi. Ayniqsa, Fitrat tomonidan tuzilgan "O'zbek adabiyoti namunalari, I jild" (1928) va so'z boshi muallifi Otajon Hoshim keskin tanqid ostig'a olingan edi.

Б† Muharrir - muallif ma'nosida.

Б† Abdurauf Fitrat. O'zbek adabiyoti namunalari. 1 kitob. Samarqand - Toshkent, 1928 yil.

Б† Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari" kitobi munosabati bilan "Qizil O'zbekiston" ro'znomasi sahifalarida J. Boybo'latov chiqish qilib, faqatgina ushbu kitobni emas, umuman, Fitrat ijodini keskin tanqid qilgan edi.

Б† Qoplovi - qamrovi.

Б† Tekirish - tekizish.

Б† Boshqa ko'pgina manbalarda Fitratning tug'ilgan yili deb 1886 yil sanasi ko'rsatilgan. Xususan, S. Ayniy shunday ma'lumot beradi: "Abdurauf Fitrat Buxoriy - tug'ilgan yili 1304 hijriy" (ya'ni milodiy 1886 ga to'g'ri keladi). Qarang: S. Ayniy. Namunai adabiyoti tojik. - M.: 1926, III qism. Shuningdek, Fitrat hayot paytida e'lon etilgan "Katta Sovet qomusi"da ham shu sana keltiriladi. Qarang: Fitrat Abdurauf. BSE, M., 1936, t.57. 6.656.

Б† "O'rta Osiyoda tasavvuf tarixi" nomli kitob yozayotgani haqida bir necha bor ma'lumot beradi, biroq bu ish oxirigacha yetmagan. Tugallanmagan qo'lyozmaning taqdiri esa noma'lum. Fitrat tomonidan keltirilgan "zaharli", "zararli" so'zlari uning tasavvufga munosabatini belgilamaydi. Bu faqat davr taqozosi bilan yuzaga kelgan, nohaq tanqiddan o'zini himoya qilishning bir yo'li, xolos. Fitratning o'zbek adabiyoti tarixi haqidagi qator ishlari bilan tanishishning o'ziyoq bu fikrni tasdiqlaydi.

Б† Yusuf Aliev (1891 - 1946) nazarda tutilyapti. Turkiston Kompartiyasining arboblariidan bo'lib, o'sha paytda Turkiston Ichki ishlar xalq komissarining o'rinbosari edi.

Б† Bu o'rinda dinsiz so'zini ateist so'zi bilan almashtirmaslik kerak. Chunki Fitrat tomonidan yozilgan asarlarni sinchiklab kuzatganda bu nozik ayirma ochiqroq ko'rinadi.

Б† Sangsor - toshbo'ron qilish.

Б† Gap "Munozara" xususida ketyapti. "Munozara"ning Istanbul nusxasida o'ziga xos "Muqaddima" va "Xotima" yozilgan bo'lib (Hoji Mo'yin tarjimasida bu tushib qolgan), unda Fitrat Buxoro amiriga murojaat etib, mamlakatning qoloq ahvolini bayon qilgan edi.

Б† Tilga olingan maqola "Maorif va o'qitg'uchi"da bosilgan. Qarang: jurnalning 1927 yil, 6-8-sonlari.

Б† Fikrning notugalligidan va Fitrat uslubidan (u deyarli har bir ilmiy ishining boshlanishida tilga olingan istilohga qaytadi va ko'pincha, unga bo'lgan munosabatini takroran ta'kidlash bilan asarini tugallaydi) seziladiki, "xat"ning davomi bo'lgan. Buni Fitrat zamondoshlaridan L. Azizzoda va M. Rahim qizi tasdiqlagan. Maqolaning yakuni tahririyat tomonidan "qaychilang'an" bo'lishi mumkin. "Idoradan" nomi ostida berilgan redaktsion maqolachadan gazetaning o'sha paytdagi adabiyotga nisbatan tutgan "pozitsiya"sini bilsa bo'ladi:

"Idoradan" - Fitratning bu maqolasi Chig'atoy adabiyoti masalasiga oid bir necha muhim paytlarini ochib beradi, biroq bu bilan chig'atoyizm unsurlari va ularning qoldiqlari bilan kurash tamom bo'lmaydi. Idora bu masala tevaragida ochgan muzokarani davom ettirishni lozim topadi.

Б† Fitratning bu maktubi ilk bor 1910 yili Istanbulda chiqadigan "Ta'rufi muslimin" ("Musulmonlar ta'riflari") nomli "diniy, siyosiy, tarixiy, falsafiy va ahvoli olam"dan bahs qiluvchi haftalik majalla sahifalarida, (1328/1910 yil, 25-adad, 2-jild; 8 dekabr, payshanba) e'lon qilingan. Maktub Amir Olimxon Buxoro taxtiga o'tirgandan keyin Nasrulloh Parvonachining bosh vazir lavozimiga tayinlanishi munosabati bilan yozilgan. Fitratning Istanbulda chop etilgan ilk asarlari kabi bu maktub ham fors tilida bitilgan. Garchi majalla turk tilida chiqib turgan bo'lsa ham Fitratning bu maktubini ayni holda, ya'ni fors tilida chop etgan. Asar fors tilidan tarjima qilinib, e'lon qilinyapti. Dastlab, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati"ning 1996 yil 9 may sonida e'lon qilingan (mutarjim H. Boltaboev).

Fitratning boshqa jadidchilik ruhiga hamohang bo'lgan bu maktub ulug' adibimiz salohiyatining yangi qirralaridan kitobxonni xabardor etadi deb ishonamiz.

Б† Vazoratpanoh - vazirlarni panohiga olgan. Bu yerda: bosh vazir lavozimi.

Б† Fano sahrosi - yo'qlik girdobi

Б† Hazrati Rab'u-l-izzat - Allohning sifatlaridan biri bilan uning muborak nomi tilga olinyapti.

Б† Padari mehribonimiz - Buxoro taxtiga yangigina chiqqan Amir Olimxon nazarda tutiladi.

Б† Tanzim qilish - nizomga, tartibga solish.

Б† Tarbiyat va tanzim - tarbiya va tartib.

Б† Nauzibilloh - Alloxdan panoh so'ramoq.

Б† Nushiravon yoki Anushirvon - mashhur Eron (sosoniylar) hukmdorlaridan bo'lib, istibdodpesha sarkardalar orasida faqat yaxshi nom bidan, ya'ni adolatli podshoh sifatida tarixda qolganiga ishora.

Б† Fitratning "Sharq siyosati" risolasi I jahon urushidan keyin davom etayotgan va urushda qatnashgan Ovrupa mamlakatlarining Sharqni o'zaro bo'lib olish siyosatiga qarshi milliy ruhda yozilganligi bilan alohida ahamiyatlidir. Fitratning shu nomdagi risolasi dastlab "Ishtirokiyun" gazetasida (1919 yil, 23, 25, 26 oktyabr) so'ngra esa, Toshkentda alohida risola holida chop etilgan. 1991 yilda Buxorodagi "Navqiron Buxoro" ilmiy markazi tomonidan qayta nashr etilgan. Asarning ilk nashri asosida tayyorlandi va keyingi nashri bilan solishtirildi.

Б† obdirab - dovdirab, alanglab.

Б† kiliso - cherkov.

Б† Paris - Parij.

Б† angel - farishta.

Б† yirtg'uchi - yirtqich.

Б† fas - Markaziy Afrika.

Б† osug' - foyda.

Б† oxsum - Bu o'rinda "hamla" ma'nosida.

Б† nuxta - tizgin.

Б† xoch buyruqlari - nasroniylik talablari.

Б† faranga - tanosil kasalligi.

Б† moya - sarmoya joyi.

Б† muqaddasatin - qadriyatlar.

Б† hafz sihati - gigiena qoidalari.

Б† musovot - tenglik.

Б† yozaqdilar - qaratdilar.

Б† yag'inchoq - klub.

Б† Dardoniya - Dardonel bo'g'ozi.

Б† Inglizlarning Hindiston hisobiga orttirgan boyliklari nazarda tutiladi.

Б† xo'ppok - hech narsa, hemiri.

Б† ixtilol - inqilob.

Б† siyg'siz - foydasiz.

Б† Karib - orol nomi.

Б† mujtahid - jihodga kirgan.

Б† Imom Ali Rizo - tatar olimi va adibi Rizo Faxruddin.

Б† Hazrat Ali ravzasi - Hazrat Ali barpo qilgan bog'.

Б† Maqola "Ochiq so'z" gazetasidan (sanasi ko'rsatilmagan) olinib, "Sho'ro" jurnalining 1917 yil 15 yanvar sonida (Sana 10, Adad 2, 34-35-bet) bosilgan. Ayni o'sha manbadan olinib nashrga tayyorlandi. Fitratning ushbu maqolasini bizga taqdim etganlari uchun yapon olimi Xisao Ko'matsu janoblariga lutfan minnatdorchilik bildiramiz.

Б† o'ramlarina - Buxoro shahrini o'rab turuvchi devorlar, qo'rg'on nazarda tutiladi. Maqola dastlab tatar lahjasida e'lon etilgani uchun unda tatarcha so'z va grammatik belgilar ko'pdir.

Б† jivlashib - qarshilik bildirish.

Б† Bu e'lonning ostiga bir hadis ham yozilgan bo'lib, uning so'zlari keltirilmagan. Bizningcha, Fitratning "Munozara" asarida keltirilgan hadislardan biri shunga mazmunan mos keladi.

Б† tugul - emas. Bu yerda: mumkin emas.

Б† ninday - nima, qanday narsa.

Б† to'g'uvlarida - yaratish, tarbiya bermoq. Bu yerda: axloq, tarbiyalarida.

Б† zibar - bezak, ziynat.

Б† shiy - shu, shunday.

Б† akfor - kufr qilmoq, ko'plikda: kofirlar.

Б† ekunchilik - dehqonlik.

Б† ninday falsafaga qo'radir - qanday falsafaga asoslanadi.

Б† musoida - "musoid" yordam beruvchi. Bu yerda: yordam bermadi ma'nosida.

Б† ko'moch narsasi shirkati - Buxoroda jadidlar tomonidan ochilgan tijorat shirkatlaridan biri.

Б† ijtilhod - tirishish, say'-harakat.

Б† otish o'ynovchi - qimorboz. Bu yerda: oshiqotuvchi.

Б† Buxoriy - asli ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870). "Al-jomi' as-sahih" kitobidagi hadislar nazarda tutiladi.

Б† Muslim - Muslim an-Nishopuriy mashhur muhaddis nazarda tutiladi.

Б† botillik - nohaq, asossiz. Bu yerda: behuda.

Б† Maqola "Kolesov voqealari" deb nom olgan Mart voqealaridan (1918) avval yozilgan bo'lib, unda yosh buxorolilarning Toshkentga ko'chishi, uning a'zolarining amir tomonidan qamoqqa olinishi va Samarqanddagi soldatlar tomonidan ozod qilinishi kabi voqealar aks etgan. Maqola mazmunidan va Fitratning o'z so'zlaridan ma'lum bo'ladiki, bu asar alohida risola shaklida tartib berilgan edi, bu yerda keltirilayotgan qismlar uning boshlangich boblari, xolos. Keyingi Mart voqealari, "Hurriyat" gazetining yopib qo'yilishi risolaning tugallanishiga xalaqit bergan ko'rinadi. Risola keyinchalik ham na alohida shaklda, na boshqa vaqtli nashrlarda e'lon qilinmagan. Biroq shu tugallanmagan parcha ham Fitratning Buxoro ekinchisi (dehqon)ning ahvolidan naqadar chuqur boxabarligi, uni o'zgartirish uchun dildan urinayotganiga guvoh bo'la olishi mumkin.

Б† havodis - hodisalar.

Б† rais Abdullohxo'ja Sadur - vaqf va din ishlari bilan shug'ullanuvchi amaldor Buxoro xonligida rais deb yuritilgan, u ko'pincha sadrlardan bo'lgani uchun, qolaversa, bu mansab diniy ishlar bilan bog'liq bo'lgani uchun sadr va eshonlar qo'yilgan. Abdullohxo'ja esa, Fitrat boshliq jadidchilarning talabi bilan amirning buyrug'iga ko'ra qatl qilingan edi (bu haqda Fitratning avvalgi maqolalarida ham so'z yuritiladi).

Б† mufti Askar Masnaf - shariat masalalarini talqin qiluvchi va shul haqda hukm chiqaruvchi Buxoroning yuksak lavozimdagi shaxslaridan. Qozikalon Burhoniddin bilan birga bu lavozimdagi kishilar ham qatl qilingan edi. Bu haqda qarang: Fitrat. Buxoro ulamosi, "Hurriyat", 1917, 48-son.

Б† Boydoq - namoyish.

Б† Bu shaxs F. Xo'jaevning shahodatiga ko'ra (F. Xo'jaev. Asarlar, I jild, Toshkent, 1976, 118-bet) Mirza Nasrulla edi. 17 martda amir chiqargan manifest munosabati bilan namoyish o'tkazilgan bo'lib, bu namoyish ishtirokchilaridan, ya'ni yosh buxorolilarning faollaridan bir nechasini Amir "obxona"ga qamatgan edi. Kaltaklangan Nasrulla ertasiqayoq vafot etadi. Maqolaning quyirog'ida Fitrat yana ikki kishi kaltaklanganini yozadi. Ular S. Ayniy va Mirbobobilar. Qamoqdan ular bilan birga Otaxo'jaev va Yusufzodalar ham ozod etiladi.

Б† "G'azo" - musulmonlarning yalpi urushi, mazlumlarint zolimlarga qarshi urushidir. Bu yerda: kambag'al musulmonlarning o'z dushmanlariga qarshi urushi nazarda tutiladi.

Б† "Risolani... qo'limga oldim" - Taassufki, bu risola oxirigacha yetmagan. "Buxoroning holi" deb nomlangan birinchi qismdan ayrim maqolalar chop etildi, xolos. "Fitna soatlari" deb nomlangan ikkinchi, "Yoshlarning tilaklari" deb nomlangan uchinchi qism esa, keyin hech qerda e'lon etilmagan. Bizningcha, u yozilmay qolib ketgan.

Б† Ilikot - qo'limizdagi; bu yerda: kundalik ma'nosida.

Б† Amlok - bu yerda: amlok - muluklar, ya'ni davlat tomonidan soliq olinadigan maxsus ruyxatdagi yerlar.

Б† mulki hur - ozod yerlar, ya'ni soliqolinmaydigan yerlar.

Б† Vaqf - mulkdorlar tomonidan diniy muassasa, masjid yoki madrasa tasarrufiga berilgan yerlar. Unda ishlab, ko'rgan foydalari

ayni muassasalar uchun sarf bo'ladi. Vaqf yerlarini sotish yoki birovga xatlab berib yuborish man' qilinadi.

В† Hiroj - yerdan olinadigan soliq, bu yerda: mulki hirojii - soliq talab etiladigan yerlar.

В† Sayis - ish yurituvchi.

В† Muharrif - sarf-xarajat.

В† istifoda - foydalanmoq.

В† Xasbar - xos (maxsus) va bar (samara, natija) so'zlaridan hosil qilingan bu tushuncha soliq undirishning bir usuli bo'lib, bunda hosil bitmay turib (kechasi yo kunduz to'satdan) yerlardan olinadigan hosil taxmin qilinib, yozib ketiladi. Mana shu taxmin bo'yicha Buxoro dehqonlarining yerlaridan soliq undirilgan.

В† Xubb - sevish, muhabbat bilan, bu yerda: (xubbidan chiqarib - ko'ngildan chiqarib, astoydil, muhabbat bilan ma'nolarida.)

В† Kafsan, ot yemi, mirzayona - kafsan mahalliy tuman ma'muriyati uchun (tuman boshliqlarining idoraviy sarfi uchui) olinadigan soliq; ot yemi - amir sarbozlarining otlari uchun degan bahona bilan olinadigan don solig'i; mahalliy hokimiyatdagi xat, hujjat ishlari deb olinadigan soliq mirzayonadir.

В† muhoraba - urush, bu yerda: Birinchi jahon urushi nazarda tutiladi.

В† tuxum - urug', bu yerda: urug'lik ma'nosida.

В† kachi zakoti - qo'y, echki kabi chorva mollaridan keladigan foydaning qirqdan biri miqdorida olinadigan soliq. Bu yerda: "kachi-kichi - echki" ma'nolarida ishlatiladi (shevaga oid so'z).

В† sarfona, kotibona - sarf-xarajatlar uchun, kotiblar uchun degan bahonalar bilan qirqdan bir emas, balki yigirmadan bir miqdoridan olinadigan zakot.

В† chakana zakoti - nisobga (hissa, miqdor, bu yerda: hisobga qo'shilmagan ma'nosida) erishmagan uy hayvonlaridan olinadigan soliq. Masalan, hisoblash paytida bu qo'y va echkilar yo'q bo'lib, ular ro'yxatga olishdan keyin tug'ilgan. Ular uchun chakana zakot olingan.

В† tanindaki (tanidan) yo'nindan (yo'sinindan) - zakot olingan uy hayvonlarining tanidan (hisobidan) yana zakot olish (xuddi savdogarlardan bir necha bor zakot olingani kabi).

В† Maqola tugallanmagan ekanini yuqorida aytili (buni ushbu fikrning tugallanmaganidan ham bilsa bo'ladi).

В† "Hurriyat" gazetasining 64-sonidagi "Angliz o'yunlari" va "Taqsimi a'mol" (67-son) maqolalari nazarda tutiladi.

В† Safar Badlov - Kogonda (yangi Buxoro) yashayotgan rus muhojirlaridan biri. Amir Olimxonning maslahatchisi va noibi Millerning buyrug'iga ko'ra Kogonda ko'plab rus va yahudiy boylari to'plagan edi.

В† kashish - tortilgan, jalb etilgan.

В† amru avu - afv etish haqidagi buyruq. Bu yerda: amnistiya.

В† inar - kelar, tushar.

В† "Turkistonning tole'i" haqida Fitrat ayni 10-yillar oxiridagi siyosiy voqealarni chuqur tahlil etgan "Sharq siyosati" (Toshkent, 1919) risolasida batafsil ma'lumot bergan.

В† Yunondan Rumog'a - Gretsiyadan Turkiyaga qadar.

В† Ubadan Kanstantaniyag'a - Yunonistondagi shahar Ubadan Konstantinopol, (ya'ni Istanbulga) ko'chgan madaniyat.

В† Islom tarixida umaviylardan xalifalikni qo'lga olgan abbosiylar eronli Abu Muslim vositasi bilan xalifalikni egallagan bo'lib, ularning davrida musulmonlik jahon miqyosida katta sharafga ega bo'lgan. Xorun ar-Rashid, Ma'mun singari xalifalar yetishib chiqqan. Ulardan so'nggi islom jahongirlikning marka-zi Movarounnahr va Rum bo'lgan Temur Ko'ragon va Boyazid temuriylar hamda usmonlilar sulolalari nazarda tutiladi.

В† Abu Ali - Abu Ali Ibn Sino.

В† Javhariy Abu Nasr Ismoil ibn Hammud (940-1008) - Farobda tug'ilgan. Ko'proq Bag'dodda yashagan tilshunos olim va faylasuf. Asosiy asari "Toju l-lug'a va sahoxu-l-arabiyya" ("Lug'at toji va arabchaning haqiqiyisi") asaridir. Arab tilida yozilgan bu asarning 1865-75-yillar davomida Qohirada nashr etilgan nusxasi mashhurdir.

Б† maaltaassuf - ajablanish belgisi: taassuf.

Б† "Turkiston viloyatining gazeti" va uning ruscha nashri "Turkestanskije vedomosti" hamda uning muharriri Ostroumov nazarda tutiladi.

Б† 1917 yilning 28 noyabrida Qo'qonda e'lon etilgan Turkiston Muxtoriyati nazarda tutiladi. Bu haqda Fitratning "Muxtoriyat" maqolasiga qarang.

Б† ijtimoi' etgan - qo'shilgan, birikkan, jam bo'lgan.

Б† maf'iu-l-zamiri - zamiriga (ostiga) yashirilgan narsa.

Б† qushbegisi - Buxoro amiri Olimxonning qushbegisi Nasrullohbiy parvonachi nazardatutiladi. Hozirgi bosh vazirga yaqin lavozim.

Б† mehroxo'r - yig'ilgan soliqlarni qabul qiluvchi.

Б† to'xsobaliq - Buxoro amirligidagi oliy harbiy vazifalardan. Negadir lug'atlarda "to'qsabo" deb forscha talaffuz bilan berilgan. Bu asl turkcha so'z "Farhangi zaboni to'chiki"da nisbatan to'g'ri yozilgan: Farhangi zaboni to'chiki, 2-jild, Moskva, 1969, 383-bet.

Б† angiz isiyun - "angiz" qasd, qasos. Qasos olishni tezlatish ma'nosida.

Б† qinab - qiynoq, azob berish.

Б† pilon - reja, plan.

Б† "Hurriyat" gazetasining 57-58-sonlaridagi Buxorodagi ahvolga taalluqli maqolalar nazarda tutiladi.

Б† muosiy - gunohkorlik.

Б† jinoyali - jinoyatkorona demoqchi. Buxoro amiri Olimxonning 1918 yil 17 mart Farmoni nazarda tutiladi. Farmonning to'la matni uchun qarang: F. Xo'jaev. Tanlangan asarlar, uch tomlik, 1-tom, Toshkent, 1976, 108- 109-betlar.

Б† vazurotpanoh - vazirlar kengashi.

Б† "bayonnoma - hamma bunga ko'mak etmak" shiori yosh buxorolilar partiyasining "Kolesov voqealari" deb nomlangan voqealargacha bo'lgan shiori bo'lib, dastlab ular amirdan islohot talab qilgan edilar. Keyinroq mart voqealarida amir garchi islohot va'da qilgan yuqoridagi bayonnomanini chiqargan bo'lsa-da, voqealar rus harbiylarining aralashuvi bilan jangovar tus olib ketgandi.

Б† Buxoro yoshlig'i - yesh buxorolilar partiyasi.

Б† o'g'urli - haybatli, buyuk.

Б† "qo'shma xalq jumhuriyati" usuli - Rusiyaning federatsiya asosidagi boshqariluvchi nazarda tutiladi. Dastlab, boshqa respublikalar ittifoqdosh jumhuriyatlar bo'lib emas, balki Rossiya hududidagi muxtor (avtonom) jumhuriyatlar bo'lib birlashganlar.

Б† qo'nuq - navbat, gal.

Б† yarasharoq - yarashiqliroq.

Б† o'zgarish - Oktyabr inqilobi.

Б† Rig'o - Riga shahri. Rusiyaning Boltiqbo'yini egallash ilinjidagi janglardagi muvaffaqiyatsizligi nazarda tutiladi.

Б† e'timod - yupanch, tayanch.

Б† muttafiq - birlashgan, ittifoqchi.

Б† orqasi aysimas - natijasiz.

Б† Birinchi jahon urushidagi Olmoniya va Italiya qo'shinlarining o'zaro kurashlari nazarda tutilgan. Italyan qo'shinlari Alp tog'larini oshib o'tishi bilan o'z ichki mudofaasidan uzoqlashib ketadi. Olmoniyaning Italiya ichkarisiga yo'l ochishi voqealari nazarda tutilmoqda.

Б† mone' - to'siq.

Б† Bani Hoshim - Quraysh qabilasining Hoshim ibn Abdumannofdan tug'ilgan farzandlari, ya'ni uning avlodlari bani Hoshim nomi bilan yuritilgan. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ham shu urug'dan bo'lib, to'rtinchi bo'g'inni tashkil qiladi (Muhammad

This is not registered version of TotalDocConverter

ibn Abdunnoton ibn Abdumutallib bo'lgan). Uning otasi Abdumannof o'g'lining farzandi Abdumutallib vafotidan so'ng urug' ichida o'zaro nifoqlar ko'chayib ketadi. Ayniqsa, bani Hoshim avlodlari bilan Abu Sufyon avlodlari o'rtasida nifoqlar keskin janglarga aylanib ketgan. Buning birgina misoli Badr g'azotidir.

Б† Bani Umaviya - Abu Sufyon avlodlaridan bo'lib, Payg'ambarimiz va chahoryorlardan so'ng xalifalikka musharraf bo'lgai Muoviya ibn Sufyondir. U Imom Hasan iste'fosidan so'ng xalifalikka muqarrar bo'lgan bo'lsa, xalifalikda nasliy sulolani rasm qildirdi (bungacha xalifalik Payg'ambarimizdan boshlab bir kishining haqqi emas edi, musulmonlar kimni saylashsa o'sha xalifa bo'lar edi). Dastlab, uning o'g'li Yazid, so'ng Valid binni Abd al-Malik va sulolaning oxirgi bo'g'ini Marvon binni Muhammad bo'lgan.

Б† dashtlik - dushmanlik, nifoq ma'nosida. Yuqoridagi sulolalar o'rtasidagi nifoq kabi buxorolilar bilan ko'loblilar o'rtasida ham nifoq bo'lib, ma'lum ma'noda mana shu nifoq XX asr boshlaridagi Buxoroning tanazzulini keltirgan sabablardan biridir.

Б† Sadriddin Mulla To'xmaq o'g'li - Buxoroning amir Muzaffariddin va amir Abdulahadxon davridagi qozikalonlaridan. Shu kishining say'-harakatlari bilan qozikalonlik Buxoroda nasliy shakl olgan. Shundaylardan biri uning nabirasi Burhoniddin edi.

Б† mustahiq - loyiq, sazovor.

Б† aminona - Buxoro amirligidagi soliqlardan bir turi; yerdan olinadigan soliq bo'lib, vaqf yerlaridan tashqari shar'iy diniy masalalarda foydalanish uchun amirning haqqi deb belgilangan soliqlardan. Qozikalon Sadriddin davrida urf bo'lgan.

Б† Qur'oni karimning "Al-Baqara" surasidagi jumla.

Б† tubchak - tub aholisi, asil buxorolilar nazarda tutiladi.

Б† Maqola so'ngida "Boqiyasi (ya'ni davomi) bor" iborasi keltirilgan. Biroq ayni shu nomdagi boshqa maqola chop etilmagan.

Б† Sho'royi islomiya - 1917 yil 1 aprelda mazkur tashkilotning 1 qurultoyida ta'sis etilgan jamiyat. Sobiq o'ng jadidlar, asosan, shu jamiyat quruvchilari edilar. Uniig dasturi qurultoyda Munavvar Qori nutqida e'lon etilgan.

Б† Uy egalari - Turkistonda mavjud rus partiyalaridan biri.

Б† galos - ovoz.

Б† Duma - Rusiyadagi saylov tizimiga ko'ra mustamlaka o'lkalardagi xalq vakilligi organlari ham дума deb yuritilgan.

Б† vakil qilib o'turur - Samarqand shahri ko'p millatli bo'lgani uchun shahar dumasiga, asosan, turk, rus va yahudiy millatiga mansub kishilargina saylovlarda qatnashish huquqini olganlar.

Б† tahriri nufus - Samarqandda 1917 yil 18-20 avgustlarda saylov oldidan aholini ro'yxatga olish o'tkazilgan, o'sha nazarda tutiladi.